

Tinglovchilar uchun o'quv-uslubiy majmua



Bosh ilmiy-metodik
markaz

2022

Pedagogning kasbiy
professionalligini oshirish

Muslimov Narzulla | P.F.D., prof.

Ishmuhamedov Ravshan | Katta o'qituvchi

Innazarov Majid | P.F.F.D, PhD.

Modulning o‘quv-uslubiy majmuasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv dasturi va o‘quv rejasiga muvofiq ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar: **N.A.Muslimov** – pedagogika fanlari doktori, professor
M.A.Innazarov – pedagogika fanlari bo‘yicha PhD

Taqrizchilar: **J.O.Tolipova**-pedagogika fanlari doktori, professor.
F.M.Zokirova-pedagogika fanlari doktori, professor

**O‘quv -uslubiy majmua Bosh ilmiy-metodik markaz Ilmiy metodik Kengashining
qarori bilan nashrga tavsiya qilingan
(2021 yil “30” dekbardagi 6/4-sonli bayonnomasi)**

MUNDARILJA

I. ISHCHI DASTUR	4
II. MODULNI O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM METODLARI.....	14
III. NAZARIY MATERIALLAR.....	21
IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI.....	77
V. GLOSSARIY	91
VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI	99

I. ISHCHI DASTUR

Kirish

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevralda “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustda “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrda “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari, 2020 yil 27 fevralda “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-sonli va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrda “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir” nomli nutqida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, ushbu dastur oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

Dastur doirasida berilayotgan mavzular ta’lim sohasi bo‘yicha pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmuni, sifati va ularning tayyorgarligiga qo‘yiladigan umumiyligi malaka talablari va o‘quv rejalarini asosida shakllantirilgan bo‘lib, uning mazmuni Professional o‘qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o‘tkazish metodikasi. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari. Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) va STREM-ta’lim (fan,

texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari bo‘yicha tegishli bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

Modulning maqsadi va vazifalari

Modulining maqsadi: pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malaka oshirish kursi tinglovchilarini pedagogning kasbiy professionalligini oshirish haqidagi bilimlarini takomillashtirish, innovatsion faoliyatni rivojlantirishdagi muammolarni aniqlash, tahlil etish, shuningdek, ularda innovatsion ta’lim texnologiyalari, o‘qitishning innovatsion shakl, metod va vositalari, pedagogik kompetentlik sifatlari hamda ta’lim jarayonini tashkil etishga kreativ yondashishga doir bilimlarni takomillashtirish asosida ular tomonidan innovatsion yondashuv, pedagogik kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyatning samarali o‘zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitni yaratish to‘g‘risida ko‘nikma va malakalarini tarkib toptirish.

Modulning vazifalari:

- tinglovchilarda innovatsion xarakterga ega pedagogik faoliyatni tashkil etish;
- ularda pedagogik jarayonni samarali tashkil etishda kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari: loyihibiy ta’lim, vitagen, skamper, dizayn fikrlash boshqa ta’lim texnologiyalaridan o‘rinli, maqsadli foydalanish ko‘nikma-malakalarini rivojlantirish;
- tinglovchilarning o‘quv loyihalarni ishlab chiqish, fanlararo integratsiyasi (STEAM ta’limi)ni shakllantirish va amaliyotga tatbiq etish malakalarini takomillashtirish;
- tinglovchilarda kasbiy professionalligini yanada takomillashtirish;
- OTM pedagog kadrlarida o‘quv mashg‘ulotlarini tashkil etishga kreativ yondashish ko‘nikma-malakalarini takomillashtirish.

Modul bo‘yicha tinglovchilarning bilimi, ko‘nikmasi, malakasi va kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar

“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” kursini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

tinglovchi:

- professional o‘qituvchi shaxsiga qo‘yiladigan talablarni;
- pedagogning kompetentligi va kreativligi sifatlarini;
- kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmunini;
- ta’lim jarayonini modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlarini;

- o‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish va o‘tkazish metodikasini;
- talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.)ni;
- talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllarini;
- Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) va STREM-ta’lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlarini **bilishi** kerak.
- kasbiy professionalligi va innovatsion faoliyatini namoyon etish;
- ta’lim jarayonida modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlarni qo‘llab, ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish;
- o‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlarini (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish;
- talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.)dan foydalanish;
- talabalarning mustaqil ishlarini zamonaviy shakllar asosida tashkil etish;
- Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) va STREM-ta’lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) usullaridan foydalanish **ko‘nikma va malakalariga** ega bo‘lishi lozim.
- kasbiy professionalligi va innovatsion faoliyatini tashkillashtirish;
- ta’lim jarayonida modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlardan samarali foydalanish;
- o‘quv mashg‘ulotlarini zamonaviy turlari (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) asosida tashkillashtirish;
- talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.)dan foydalanib, o‘quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish;
- talabalarning mustaqil ishlarini zamonaviy shakllar asosida boshqarish;
- Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) va STREM-ta’lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) usullari asosida talabalarning o‘quv-bilish faoliyatini tashkillashtirish **kompetensiyalarga** ega bo‘lishi lozim.

Modulni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar

“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar shaklida olib boriladi.

Kursni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo‘llanilishi nazarda tutilgan:

ma’ruza darslarida zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimot va elektron-didaktik texnologiyalardan;

o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda texnik vositalardan, blis-so‘rovlar, aqliy hujum, guruhli fikrlash, kichik guruhlar bilan ishlash, va boshqa interfaol ta’lim metodlarini qo‘llash nazarda tutiladi.

Modulning o‘quv rejadagi boshqa modullar bilan bog‘liqligi va uzviyligi

“Pedagogning kasbiy professionalligini oshirish” moduli bo‘yicha mashg‘ulotlar o‘quv rejasidagi “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish”, “Ta’lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish”, kabi modullar bilan uzviy aloqadorlikda olib boriladi.

Modulning oliv ta’limdagi o‘rni

Modulni o‘zlashtirish orqali tinglovchilar innovatsion ta’lim texnologiyalarini o‘zlashtirish, joriy etish va amaliyatda qo‘llash malakalari, pedagogik kompetentlik sifatlari va kreativ qobiliyatga ega bo‘ladi.

MODUL BO‘YICHA SOATLAR TAQSIMOTI

№	Modul mavzulari	Auditoriya o‘quv yuklamasi		
		Jami	Nazariy	Amaliy mashg‘ulot
1.	Pedagogning kasbiy professionalligi va uni rivojlantirish yo‘llari	4	2	2
2.	O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida tashkil etish va o‘tkazish metodikasi	4	2	2
3.	Steam va STREM ta’lim xususiyatlari	2		2
	Jami:	10	4	6

NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-MAVZU. PEDAGOGNING KASBIY PROFESSIONALLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Professional o‘qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

2-MAVZU. O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI

O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.

AMALIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

1-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: PEDAGOGNING KASBIY PROFESSIONALLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (2 soat)

Professional o‘qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi.

Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

2-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI (2 soat)

O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari

3-AMALIY MASHG‘ULOT

MAVZU: STEAM VA STREM TA’LIM XUSUSIYATLARI. (2 soat)

Steam-ta’lim (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san’at, Mathematics – matematika) xususiyatlari. STREM-ta’lim (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.

O‘QITISH SHAKLLARI

Mazkur modul bo‘yicha quyidagi o‘qitish shakllaridan foydalaniladi:

- ma’ruzalar, amaliy mashg‘ulotlar (ma’lumotlar va texnologiyalarni anglab olish, motivatsiyani rivojlantirish, nazariy bilimlarni mustahkamlash);
- davra suhbatlari (ko‘rilayotgan loyiha yechimlari bo‘yicha taklif berish qobiliyatini rivojlantirish, eshitish, idrok qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish);
- bahs va munozaralar (loyihalar yechimi bo‘yicha dalillar va asosli argumentlarni taqdim qilish, eshitish va muammolar yechimini topish qobiliyatini rivojlantirish).

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarları

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
7. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyun “Oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4732-sonli Farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 may “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-sonli Farmoni.
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyun “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.
14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi “O‘qituvchi va murabbiylar–yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).
18. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada

takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

19. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

20. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obЩestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. -116 s.

21. Britkevich M.S. Innovatsionnyy pedagogicheskiy orыт kak faktor professionalnogo sovershenstvovaniya uchitelya v usloviyakh sistemy povышeniya kvalifikatsii. diss... kan.ped.nauk. – M.: 2018. - 229 s.

22. Golovey L.A., Manukyan V.R., Rыkman L.V. i dr. Professionalnoe razvitiye lichnosti: nachalo puti (empiricheskoe issledovanie)/ L.A. Golovey, M.V. Danilova, L.V. Rыkman, M.D. Petrash, V.R. Manukyan, M.Yu. Leonteva, N.A. Aleksandrova. - SPb.: Nestor-Istoriya, 2015. -336 s.

23. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhammedov, M.Normuhammedova. An’naviy va noan’naviy ta’lim. – Samarqand:“Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

24. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoj obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

25. Zaysev V.S. Sovremennye pedagogicheskie texnologii: uchebnoe po sobie. – V 2-x knigax. – Kniga 1. – Chelyabinsk, ChGPU, 2012 – 411 s.

26. Zaysev V.S. Sovremennye pedagogicheskie texnologii: uchebnoe po sobie. – V 2-x knigax. – Kniga 2. – Chelyabinsk, ChGPU, 2012 – 496 s.

27. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – T.: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

28. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliv ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-Toshkent: TDPU – 2013. – 256 b.

29. Ishmuhammedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

30. Kornienko Ye.R. Pedagogika: uchebnoe posobie dlya inostrannix studentov / Ye.R.Kornienko. – Arxangelsk: Izd-vo Severnogo gosudarstvennogo meditsinskogo universiteta, 2015. – 147 s.

31. Kox M. N. Osnovy pedagogiki i andragogiki: ucheb. posobie /M. N. Kox, T. N. Peshkova. – Krasnodar: KubGAU, 2015. – 90 s.

32. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

33. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

34. Muslimov N.A., Mutalipova M.J., Abdullaeva Q.M. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kommunikativ kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Metodik qo‘llanma. –T., 2014.
35. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.
36. Ro‘zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo‘llanilishi / Met.qo‘ll.–T.: Nizomiy nomli DTPU, 2013.–115 b.
37. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse vuza: monografiya. – Voskresensk, 2012. – 218 s.
38. Sovremennye obrazovatelnye texnologii: pedagogika i psixologiya: monografiya. Kniga 16 / O.K. Asekretov, B.A. Borisov, N.Yu. Bugakova i dr. – Novosibirsk: Izdatelstvo sRNS, 2015. – 318 s.

IV. Internet saytlar

39. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
40. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
41. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
42. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
43. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

O'QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA'LIM

Ta'lism samaradorligini oshirishda o'ziga xos zamonaviy yondoshuvlaridan biri bu innovatsion yondashuv bo'lib, bunda o'qitish jarayonlarini tashkil etishda shakl, metod va vositalarning o'zaro uyg'unligini hisobga olgan holda tanlash asosida o'qituvchi va ta'limgan oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish sanaladi.

Innovatsion yondashuv asosida ta'limgan jarayonini tashkil etishda uning asosiy komponenti interfaol ta'limgan metodlari hisoblanadi.

Interfaol metodlar deganda – ta'limgan oluvchilarni faollashtiruvchi va mustaqil fikrlashga undovchi, ta'limgan jarayonining barcha bosqichlarida sub'ekt-sub'ekt munosabatini tashkil etuvchi metodlar tushuniladi.

Pedagogikaga oid adabiyotlarda interfaol ta'limgan samarali jihatlarini quyidagicha baholanadi:

1. Interfaol ta'limgan metodlari ta'limgan oluvchilardagi bilish jarayonlarini faollashtirish, o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarini aniq vaziyatlarda qo'llay olish, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ijodiy izlanish imkonini beradi.

2. Interfaol ta'limgan metodlari – ta'limgan oluvchilardagi motivatsiyani, nostandard vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qila olish ko'nikmalarini, tadqiqotchilik faolligi, kreativ fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi.

3. Interfaol ta'limgan muhiti ta'limgan oluvchilarda muammolarni ko'ra bilish, tahlili qilish, faol hayotiy pozisyani shakllantirish, tolerantlik, o'zgalar fikriga hurmat, jamoadagi hamkorlik, hayotiy qadriyatlarini rivojlantirishga qulay shart-sharoitlarni yaratadi.

Inson voqelik to'g'risidagi dastlabki ma'lumotlarni ko'rish, eshitish, hid bilish, tahm bilish, tuyish kabi sezgilar orqali qabul qiladi. Sezgilar orqali qabul qilingan mahlumotlar miyada muayyan xususiyatlariga ko'ra yaxlit holga, mahlum bir tizimga olib kelinishi, yahni ma'lumotlar idrok qilinishi lozim bo'ladi. Axborotlarning uzviyligi va davomiyligini tahminlashga xizmat qiluvchi bu jarayon ularni xotirada saqlash va zarur holatlarda qayta esga tushirishdan iborat bo'ladi. Ma'lumotlarni qabul qilishda qanchalik ko'p sezgi organlari qatnashsa, uni idrok etish, o'zlashtirish va xotirada saqlash shunchalik oson kechadi. Ikkinchi tomondan, har bir kishida qaysidir sezgi organlari ko'proq, qaysilaridir kamroq rivojlangan bo'ladi.

Shu bois, ta'limgan jarayonida nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini shakllantirish, o'quv materiallarini turli ko'rinishlarda, turli sezgi organlari orqali qabul qilinishi va idrok etilishini tahminlash – ta'limgan samaradorligini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Butun dunyoda ta'limgan jarayonida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning 100 dan ortiq metodlari mavjuddir. Shunga ko'ra, ta'limgan hoh anhanaviy, hoh interfaol shakllarda olib borilmasin, dars davomida ta'limgan sinalgan

11 ta metodlari; ma’ruza, to‘rt pog‘onali, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash, rolli o‘yin, ishbop o‘yin, davra suhbat, muammoli vaziyat, bahs-munozara, loyiha, yo‘naltiruvchi matn kabi metodlaridan foydalanish, ularni o‘rnida qo‘llash muhim ahamiyat kasb etadi. Ma’lumki, ma’ruzada ma’lumotlar faqat eshitish orqali qabul qilinadi. Tajribalar shuni ko‘rsatmoqdaki, ma’ruza paytida tinglovchining diqqatini 20 daqiqa davomida ushlab turish mumkin ekan. Shunda ham, bu davr oxirida diqqatning juda pasayib ketishini kuzatish mumkin. Shunga mos ravishda, o‘quv materialini o‘zlashtirish darajasi ham juda past, atigi 5-10% ni tashkil qilishi aniqlangan. O‘quv materialini vizuallashtirilgan holda, turli ko‘rgazmali tasvirlar yordamida uzatilganda, ham eshitish, ham ko‘rish organlari orqali qabul qilinadi. Ta’lim oluvchilarga ko‘rgazmalilik tamoyillariga asoslangan holda o‘quv materialini yetkazish ularning diqqatini jalb etishga yordam beradi va shu bois, bu materialni idrok etish, o‘zlashtirish osonroq va samaraliroq kechadi. Nafaqat amaliy malakalarni, balki nazariy bilimlarni o‘zlashtirishda o‘quv materialini mustaqil yoki guruh bo‘lib birgalikda o‘rganish, ta’lim oluvchining ma’lumotlarni o‘zi qidirib topishi, tajriba o‘tkazishi, nimanidir o‘zi qo‘lda bajarishi barcha sezgi organlarini birvarakayiga ishlashiga olib keladi va bu holatda o‘zlashtirish yuqori bo‘ladi.

Amaliyotdagi oddiy qoida shu haqda guvohlik beradiki, yangi bilimlarni berish nazariy darsning dastlabki 20 daqiqasida amalga oshirish, keyin esa bahs-munozara, kichik guruhlarda ishlash va boshqa shu kabi interfaol metodlarni amalga oshirib, ta’lim oluvchilarning bilimlarini mustahkamlash kerak.

Har qanday holatda ham nazariy dars jarayonida, masalan faqat ma’ruza o‘qiladigan vaqt taxminan 20 daqiqadan oshmasligi kerak. Chunki o‘rganishning dastlabki 20 daqiqasi eng samarali, 20 daqiqadan keyin esa o‘rganishni davom ettirish motivatsiyasi tezda pasaya boshlaydi. Bu hamma takliflar ta’lim oluvchining diqqatini uzoqroq vaqtgacha saqlab turishga xizmat qiladi.

Quyida (1-chizma), misol tariqasida, ta’lim oluvchilarning o‘quv materialini o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari keltirilgan.



1-chizma. Ta’lim oluvchilarning o’zlashtirish ko’rsatkichlari.

Yuqoridagi chizmaga ko‘ra, yangi mavzuning bayoni 20-25 daqiqlik ma’ruzadan boshlanishi, so‘ng esa 15-20 daqiqa ma’ruza qilingan o‘quv materialini vizuallashtirish, ya’ni unga doir ko‘rgazmali materiallar asosida tushuntirish, 10-15 daqiqa davomida esa, unga doir biror tajribani namoyish qilish yoki biror misolni tahlil qilish va oxirida 20-25 daqiqa davomida o‘quv materialini mustahkamlashga qaratilgan mustaqil yoki guruhiy amaliy mashq o’tkazish tavsiya etiladi. Shuning uchun, nazariy o‘quv materialini kichik-kichik bo‘laklarga bo‘lib, har 20 daqiqa davomida turli ta’lim metodlaridan foydalanib uzatish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ta’lim metodlaridan bunday uyg‘unlikda va ketma-ketlikda foydalanish natijasida, nafaqat ta’lim oluvchilarning diqqatini jalb etish darajasini oshirish, balki ta’lim samaradorligini oshirishga ham erishish mumkin.


Barcha metodlar o‘quv materialining didaktik vazifasi, shart-sharoitlar va vaqtini e’tiborga olgan holda tanланади. To‘g‘ri tanlangan uyg‘unlashgan metodlar ta’lim oluvchining diqqatini uzoqroq saqlab turish va uning faolligini oshirish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim samaradorligining oshishiga olib keladi.

Idrok qilish paytida qancha ko‘p sensorik (sezgi) kanallardan foydalanilsa, esda olib qolning bilimlarning miqdori va sifati shunchalik yuqori bo‘ladi.

Psixologik olimlarning ta’kidlashicha, agar bilimlar faqat ma’ruzalar orqali (passiv tinglash yo‘lida) berilgan bo‘lsa, unda 3 kundan so‘ng ularning faqat 25%ni eslash mumkin xolos. Agar u ma’ruzalar o‘qish (tinglash), namoyish va ko‘rgazmali qilish (ko‘rish, ushlab ko‘rish va shu kabilar) orqali berilsa va shu to‘g‘risida bahslashilsa, unda 3 kundan so‘ng 50% ni esga tushirish mumkin. Agarda bilimlar berishda ma’ruzadan, ko‘rgazmalilikdan va amaliy topshiriqlarni bajarishdan foydalanilsa (tinglash, ko‘rish va amalda bajarish), 3 kundan so‘ng 75% ni eslash mumkin. Agar bilimlarni idrok qilishda bir necha sensorik kanallar birgalikda ishga solingan bo‘lsa, mahlumotlarning qisqa xotiradan uzoq xotiraga o‘tish jarayoni

tezlashadi, bu esa bilihsining asosi bo‘lib hisoblanadi. Yuqoridagi tasvirdan quyidagi qoida kelib chiqadi:

1. O‘quv vaziyatini tayyorlashda interfaol metodlar va audio-vizual vositalarni samarali ishlatalish lozim. Bunda birdaniga ko‘pgina sensorik kanallar jalb etiladi.



2. O‘quv materiali to‘g‘risida bahslashishga doim imkon bering. O‘quv suhbatlar, guruhiy bahs-munozaralar o‘tkazish va amaliy topshiriqlarni bajarish tavsiya etiladi, chunki bu metodlar ta’lim oluvchilarini faollikka jalb qiladi.

Demak, dars jarayonida an’anaviy metodlar qo‘llanilganda, ta’lim oluvchilarning axborotni eslab qolish ko‘rsatkichining eng yuqori darajasi 30% ni tashkil etar ekan. Interfaol metodlar qo‘llanilganda esa, ta’lim oluvchilarning axborotlarni o‘zlashtirish darajasi yanada ko‘tarila boradi. Shuning uchun, an’anaviy metodlar bilan birgalikda interfaol metodlarni birgalikda bir-birini to‘ldirgan va uyg‘unlashgan holda olib borish maqsadga muvofiqdir.

Ta’limning shaxsga yo‘naltirilganligi. O‘z mohiyatiga ko‘ra bu yo‘nalish ta’lim jarayonidagi barcha ishtirokchilarning to‘laqonli rivojlanishini ko‘zda tutadi. Bu esa Davlat ta’lim standarti talablariga rioya qilgan holda o‘quvchining intellektual rivojlanishi darajasiga yo‘naltirilib qolmay, uning ruhiy-kasbiy va shaxsiy xususiyatlarini hisobga olishni ham anglatadi.

Imitatsion o‘yinlar - bo‘lim, sex, korxona tashkilotning faoliyati-imitatsiya qilinadi. Imitatsion o‘yinlar ssenariyasi, hodisa syujetidan tashqari, imitatsiya qilinadigan jarayon va ob’ektlar tarkibi va ahamiyati haqidagi tafsilotlarni o‘z ichiga oladi.

Operatsion o‘yinlar - tegishli ish jarayoni, ularni bajarish shart-sharoitini modellashtiradilar. Ular ma’lum bir o‘ziga xos operatsiyalarni: - masalalar yechish, ma’lum bir usulni o‘zlashtirishga yordam beradilar.

Rolli o‘yinlar - ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagи ruhiy holatlari, xatti-harakati ishlanadi, rollar majburiy mazmuni bilan taqsimlanadi.

«**Modulli o‘qitish**» termini xalqaro tushuncha - modul bilan bog‘liq bo‘lib («modul», lat. modulus), uning bitta ma’nosи faoliyat ko‘rsata oladigan o‘zaro chambarchas bog‘liq elementlardan iborat bo‘lgan tugunni bildiradi. Bu ma’noda u modulli o‘qitishning asosiy vositasi sifatida, tugallangan axborot bloki sifatida



tushuniladi.

O‘qitish usullari va texnikasi: “Keys-stadi”, “Blis-so‘rov”, “Tushunchalar tahlili”, “Zinama-zina”, “Munosabat”, “Aqliy hujum”, “Bumerang”, “Zig-zag”, “Idrok xaritasi”, “Muzyorar”, “Bahs-munozara”, “T-jadval”, (**Grafik organayzerlar**): “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Toifalash jadvali”, “Venn diagrammasi”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” va boshqalar.


Interfaol ta’lim quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Mashg‘ulot – ma’ruza emas, balki jamoaning umumiyligi ishi.
2. Guruhning tajribasi o‘qituvchi (pedagog)ning tajribasidan ko‘p.
3. Talabalar yosh, ijtimoiy mavqe va tajribaga ko‘ra o‘zaro teng.
4. Har bir talaba o‘rganilayotgan muammo yuzasidan o‘z fikrini aytish huquqiga ega.
5. Mashg‘ulotda talaba shaxsi tanqid qilinmaydi (fikr tanqid qilinishi mumkin).
6. Bildirilgan g‘oyalarning faoliyatini boshqarmaydi,

Interfaol ta’lim asosini interfaol metodlar tashkil etadi. “Ta’lim jarayonida talabalar hamda o‘qituvchi o‘rtasida hamkorlikni qaror toptirish, faollikni oshirish ta’lim oluvchilar tomonidan bilimlarni samarali o‘zlashtirish, ularda shaxsiy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladigan metodlar interfaol metodlar sanaladi”.

Shunday qilib, interfaol ta’lim texnologiyalari ta’lim sifatini yaxshilash, samaradorligini oshirish, o‘qituvchi, talaba, talabalar guruhi, shuningdek, jamoa o‘rtasida o‘zaro hamkorlikni qaror toptirish, g‘oyaviy va ruhiy birlikka erishish, yagona maqsad sari intilish, har bir ta’lim oluvchi (o‘quvchi, talaba)ning ichki imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish, shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun zarur shart-sharoit hamda muhitni yaratishda katta imkoniyatlarga ega.

Ta'lim metodlarini tanlash mezonlari



III. NAZARIY MATERIALLAR

III. NAZARIY MATERIALLAR

1-MAVZU. PEDAGOGNING KASBIY PROFESSIONALLIGI VA UNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Reja:

1. Professional o‘qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi.
2. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar.
3. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

Tayanch tushunchalar: *Professional o‘qituvchi shaxsi, boshqaruv mahorati, pedagogik ijodkorlik, pedagogning kasbiy professinalligi.*

1.1. Professional o‘qituvchi shaxsi. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi. O‘qituvchining kasbiy professionalizmi va kasb mahorati uning qobiliyati mezonlari hamda kasbiy fazilatlari (*chuqur bilimga egaligi va pedagogik faoliyatida unga asoslanganligi*), ta’lim jarayonini rivojlantirish, o‘zgaruvchan sharoitlarda ta’lim muassasasiga moslashuvi, innovatsion faoliyat, nihoyat ta’lim jarayonining samarali kechishiga jiddiy ta’sir etuvchi omillardan biridir. Tinglovchilar qobiliyatlarining qay darajada namoyon bo‘lishi va imkoniyatlarining qanday ochilishiga tinglovchilar va o‘qituvchi-pedagog o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik shakllari, umuman olganda o‘qituvchining kasbiy yetukligiga bog‘liq.



Har qanday faoliyatda professionalizm (*professional – biror kasb bilan doimiy shug‘ullanadigan odam, professionalizm – o‘z kasbini mohirlilik bilan bajarish*) – standart kasbiy muammolarni yechishni bilishdir.

O‘qituvchi shaxsining pedagogik qobiliyati va kasbiy jihatdan shakllanishi muammolari bo‘yicha o‘tkazilgan pedagogik-psixologik tadqiqotlarda “**professionalizm**” tushunchasi “**shaxsnинг kasb mahorati**” sifatida o‘rganiladi. Uning tarkibiga pedagogik faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllangan muhim kasbiy sifatlar hamda shaxsiy kasbiy salohiyatni tashkil etgan pedagogik qobiliyat va mahorat, intellektual, motivatsion, kommunikativlik, kreativlik-ijodiy, perceptiv hamda shaxs dinamizmi ya’ni emotsional-irodaviy (irodaviy ta’sir o‘tkazish va mantiqiy ishontira olish) qobiliyatlar kompleksi kiradi.

O‘qituvchining professionallik darajasi bir necha omillar bilan bevosita bog‘liq.

Birinchidan, pedagogik faoliyati jarayonida individual xususiyatlarning mavjudligi, ularni tuzatish va takomillashtirish, **ikkinchidan**, pedagogning ijtimoiy-madaniy muhitga singishi, ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimiy-madaniy me’yorlari va kasbiy mahoratini namoyon etishi.



O‘qituvchining pedagogik professionalizmi va o‘z kasbiga “kompetentligi” (loyiqligi), binobarin, o‘qituvchilik faoliyatining samaradorligi, ma’lum ko‘rsatkichlarga, masalan, pedagogning nimaga va qanday qilib o‘rgatishini qanchalik tushunishi, ham bilishi, uning bilim darajasi va pedagogik salohiyati, zamonaviy o‘qitish texnologiyasini qay darajada o‘zlashtirib olgani, kasbiy pedagogik mahorati, ta’lim berish va tarbiyalash hamda shaxsn rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni qanchalik hal eta olish pedagogik qobiliyati bilan belgilanadi.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik professionalizmi - pedagogik mahorati va o‘z kasbiy faoliyatini yuqori saviyada tashkil qila olishni ta’minlovchi, o‘qituvchi-pedagog shaxs xususiyatlarini yig‘indisidir. Shunday muhim xususiyatlarga o‘qituvchi faoliyatining insonparvarlikka yo‘naltirilganligi, uning kasbiy bilimlari, pedagogik qobiliyatları va pedagogik texnikasi (*o‘z-o‘zini boshqara olish ko‘nikmalari va tinglovchilar bilan o‘zaro hamkorlik qila olish malakasi*) kiradi. Bu pedagogik mahorat tizimidagi o‘zini tashqi ta’sirlarsiz rivojlantira olish xususiyatiga ega to‘rtta o‘zaro bog‘liq jihatlardir. Shundan kelib chiqib ta’kidlash mumkinki, **o‘qituvchi professionalizmi** – bu shaxs va faoliyat sub’ektining murakkab, ko‘p qirrali integral xususiyatlari majmuasi bo‘lib, uning tuzilmasi quyidagilardan iborat: a) o‘qituvchi professionalizmini tashkil etuvchi yaxlit komponentlar; b) o‘qituvchi faoliyati va shaxsiga qo‘yilgan me’yoriy talablar bilan belgilangan umumiylar yoki tipik xususiyatlar (*me’yoriy professionalizm*). v) o‘qituvchi sub’ekt sifatida pedagogik faoliyat va muloqotda namoyon bo‘luvchi individual-psixologik va tipologik xususiyatlari pedagogik *professionalizmning asosiy tarkibiy qismlari sifatida* “kasbiy mahorat”, “pedagogik faoliyat va muloqotning individual uslubi”, “pedagogik ijodkorlik”, “shaxsiy kasbiy salohiyat”ni *belgilash mumkin*.

Bular **“Mahorat - Uslub - Salohiyat - Mohirlik (texnika) - Ijod - Artistizm”** formulasida o‘z aksini topgan yaxlit tizimni tashkil etadi va pedagogik *professionalizmning ko‘rsatkichlari hisoblanadi*.

O‘qituvchi professionalizmi – bu tinglovchilar bilan hamkorlik va do‘stona munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladigan “ta’lim va tarbiya berish san’ati, pedagogik mahorat, pedagogik texnika va erkin ijod”dir.

Yuqorida keltirilgan fikrlar shu kunda o‘qituvchidan mohirlik, ya’ni texnikani – pedagogik texnikanining asosiy komponentlarini bilish, uning usullarini egallash va ularni o‘z faoliyatida qo‘llay olishni talab etadi.

P

e

d Pedagogik texnikanining asosiy komponentlari: 1.O‘qituvchining o‘zini boshqara bishi. 2. Shaxs va jamoaga ta’sir eta olishi.

g Yakka shaxs va jamoaga ta’sir qilishning ikki usuli mavjud: “ishontirish usuli” va “yoqish usuli”. Ikkinchisi samaraliroqdir, negaki insonga yoqmay turib uni ishontirish qiyin.

i **Pedagogik texnika** – har bir ta’lim oluvchi va jamoaga ta’sir o‘tkazishda samarali qo‘llash uchun zarur bo‘lgan malaka va ko‘nikmalar, usullar majmuasi.

Pedagogik texnikanining asosiy tarkibiy kismlari:

t • nutq malakasi va texnikasini o‘zlashtirish;

e • tushunarli, ta’sirchan fikr va his-tuyg‘ularni so‘zda aniq ifodalash, mimika va þantomimik harakatlar, jestlardan o‘z o‘rnida foydalanish;

n • ma’noli va ochiq chexrali nigoh bilan qarash;

i • hissiy-psixik va tasodifiy holatlarda o‘z his-tuyg‘ularini jilovlay olish;

k • turli vaziyatlarda o‘qituvchi-pedagog va tarbiyachiga xos bo‘lgan ijodiy kayfiyatni boshqarish;

g • kulgi va tabassum ila samimiylikni e’tirof etish;

a • tinglovchilar, hamkasblar bilan doimo yaxshi kayfiyat va rag‘batlantiruvchi munosabatda bo‘lish;

A • savodli va sof adabiy tilda so‘zlash; ijodiy pedagogik qobiliyatini qo‘llay bilish.

• Pedagogik mahoratni oshirishda o‘qituvchi shaxsining insonparvarlik yo‘nalishiga ñega bo‘lishi, uning qiziqishlari, qadriyat yo‘nalishlari va ideallarining oliy maqsadga – barkamol avlod tarbiyalab yetishtirishga yo‘naltirilganligi bilan belgilanadi. Shu bilan Murgicalikda ta’lim jarayonini boshqarish mutaxassislik fani, uni o‘qitish metodikasi, pedagogika va psixologiyani mukammal bilishni talab qiladi.

k Bugungi kunda davlatimiz ta’limi sohasi oldiga qo‘yayotgan vazifalarning bajarilishi ko‘p jihatdan o‘qituvchiga bog‘liq. Shunday ekan, axloqning muhim jihatlaridan biri inson sha’ni, qadr-qimmatidir. Kishining qadr-qimmati, avvalo, ñumumiyligi qo‘shayotgan hissasining salmog‘i va sifati bilan belgilanadi. Bozor ñqtisodiyotiga asoslangan jamiyatda inson o‘z mehnatining salmog‘i va sifati bilan, aqliy ña jismoniy mehnatining samarasini, ishbilarmonligi bilan qadrlanadi, halol mehnat kishining qadri, izzat-hurmatini oshiradi. O‘qituvchi, muallimning bajarayotgan ishi bugungi kunda jamiyatda ahamiyatlidir. Insonning qadr-qimmati uning mansabi, kasbi-q

u

y

i

koridan ko‘ra ham ko‘proq o‘z kasbini qanday bajarishi, uning odobi va xulq-atvoriga bog‘liqdir.

Jamiyatimiz talab etayotgan har tomonlama yetuk, komil insonni tarbiyalashda o‘qituvchining o‘rni beqiyosdir. O‘qituvchilik sharaflı, lekin juda murakkab kasb. Yaxshi o‘qituvchi bo‘lish uchun pedagogik nazariyani egallahning o‘zигина yetarli emas. Chunki pedagogik nazariyada bolalarni o‘qitish va tarbiyalash haqida umumiylig qonun qoidalar, umumlashtirilgan uslubiy g‘oyalar bayon etiladi. O‘qituvchining yosh individual xususiyatlarini e’tiborga olish ta’kidlanadi. Maktab hayotidagi amaliy pedagogik jarayon esa juda xilma-xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa o‘qituvchidan keng bilimdonlik, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlik, boshqaruv qobiliyatini egallahni talab etadi. Xo‘s, pedagogik mahorat nima?

Pedagogik mahorat deganda, pedagogik jarayonning barcha shakllarini eng qulay va samarali holatda tashkil etish, ularni shaxs kamoloti maqsadlari tomon yo‘naltirish, tarbiyalanuvchilarda keng dunyoqarash va qobiliyatlarni shakllantirish hamda jamiyat uchun zarur bo‘lgan faoliyatga moyillik uyg‘otish tushuniladi.

Pedagogik mahorat tushunchasi mazmunini “*Pedagogik ensiklopediya*” va pedagogik, psixologik adabiyotlarga asoslanib quyidagicha ta’riflash mumkin:

Pedagogik mahorat – o‘z kasbining mohir ustasi bo‘lgan yuksak darajada madaniyatli, o‘z fanini chuqur biladigan, yondosh sohalarni yaxshi tahlil eta oladigan, tarbiyalash va o‘qitish metodikasini mukammal egallagan o‘qituvchi -tarbiyachi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining ustoz murabbiylik fazilatlari, o‘qituvchilik kasbining sirlarini chuqur egallaganligi, insoniylik va iste’dodi hamda intellektual salohiyati va shu kabilar asosida undagi kasbiy bilim va tushuncha, ko‘nikma va malakalarning mukammal shakllangan kasbiy faoliyati.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchidagi quyidagi qobiliyatlar mujassami:

- ⊕ dars materialini aniq va ravshan bayon qila olishi;
- ⊕ o‘z ta’lim oluvchilarini iloji boricha o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha bir xil fikrga keltira olishi;
- ⊕ mavzu mohiyatini to‘la ochib bera olishi va zaruriyat bo‘lganda ularga bu mavzuning o‘z kasbiy faoliyatidagi o‘rni va roli haqida tushuncha bera olishi;
- ⊕ dars davomida befarq holda qatnashayotgan talabani tezda dars mazmunini o‘rganishga jalb qila olishi;
- ⊕ darsni yana davom ettirishini hohlovchi ta’lim oluvchilar soni auditoriyadagi jami ta’lim oluvchilarning qancha qismini tashkil etishini baholab borish va bu orqali dars o‘tish texnologiyasini takomillashtirib borish imkoniyatiga ega bo‘lishi;
- ⊕ dars maqsadiga erishganligini baholay bilishi va xulosalash qobiliyatiga ega bo‘lishi va h.k.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining o‘z fanlarini o‘rganishda erishgan tajribalarini o‘z faoliyatida ijodiy qo‘llagan holda o‘quv tarbiya ishining hamma qirralarida eng yuqori darajada erishilgan yutuqlardir.

Pedagogik mahorat – bu o‘qituvchi-pedagogning shunday shaxsiy va kasbiy



fazilatlarini belgilaydigan xususiyatki, u o‘z fanini chuqur va atroficha bilishida, pedagogik-psixologik va metodik tayyorgarligida tinglovchilarni o‘qitish, tarbiyalash va rivojlantirishniig maqbul yo‘llarini izlab topib amaliy faoliyatida qo‘llashida namoyon bo‘ladi.

Pedagogik mahorat deganda o‘qituvchining pedagogik-psixologik bilimlarini, kasbiy malaka va ko‘nikmalarini mukammal egallashi, o‘z kasbiga qiziqishi, rivojlangan pedagogik fikrlashi va intuitsiyasi, hayotga ahloqiy-estetik munosabatda bo‘lishi, o‘z fikr-mulohazasiga ishonchi va qatiy ifodasi tushuniladi.

Pedagogik mahorat – o‘qituvchining kasbiy yo‘nalishdagi ijodkorligini oliv namunasi, pedagogik mahorat o‘qituvchida yillar davomida shakllanib boradi. Mahoratli o‘qituvchi hamisha ilg‘or tajriba sohibi bo‘la oladi. Shuning uchun “Pedagogik texnologiya” tushunchasi tarkibiga “yangi”, “ilg‘or”, “novatorlik”, “ijodkorlik”, “kasb tafakkuri” kabi tushunchalar singdiriladi. Bu tushunchalarning rivoji pedagogik mahoratda namoyon bo‘ladi.

O‘qituvchilik mahorati yuzasidan tahlil qilingan manbalarda «pedagogik mahorat» – «o‘qituvchi-tarbiyachining pedagogik qobiliyati», «o‘qituvchining muomala madaniyati va nutq san’ati», «pedagogik nazokat, odob va ahloq», «turli kelib chiqadigan pedagogik vaziyatlarga munosabat», «o‘z-o‘zini tarbiyalash va o‘z ustida ilmiy ijodiy ishlash» kabi iboralar bilan tavsiflanadi. Demak, pedagogik mahorat o‘qituvchining kasbiy, shaxsiy, umummadaniy, maxsus sifatlari bilan birga o‘z kasbiga layoqatliligi, mehri bilan tavsiflanadi.

«O‘qituvchi, – deydi Al-Farobi, – aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi va o‘quvchilarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalay olishni bilmog‘i zarur». U o‘z fikrini davom ettirib, «O‘qituvchi va rahbarning vazifasi dono davlat rahbari vazifasiga o‘xshaydi, shu sababli o‘qituvchi eshitgan va ko‘rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo‘lishi, yoshlarga aytmoqchi bo‘lgan fikrlarini to‘la va aniq ifodalab berishni bilmog‘i lozim. Shu bilan birga o‘z or-nomusini qadrlashi,adolatli bo‘lmog‘i lozim. Ana shundagina u insonlikning yuksak darajasiga ega bo‘ladi va baxt cho‘qqisiga erishadi», deb ta’kidlaydi.

Nasriddin Tusiy o‘zining «O‘qituvchilarni tarbiyalash to‘g‘risida» nomli asarida:

«O‘qituvchi munozaralarni olib borishi, rad etib bo‘lmaydigan darajadagi isbot qilishni bilishi, o‘z fikrlarining to‘g‘riliqiga ishonishi, nutqi esa mutlaqo toza, jumlalari mantiqiy ifodalananadigan bo‘lishi lozim. O‘qituvchi nutqi hech qachon va hech qaerda zaharhandali, qo‘pol yoki qattiq bo‘lishi mumkin emas. Dars paytida o‘qituvchining o‘zini tuta olmasligi ishni buzishi mumkin», deydi. Demak, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘qituvchi pedagogik mahoratdan oqilona foydalanishi, boshqarish mexanizmlaridan foydalanishi zarur.

Pedagogik jarayonni boshqarish nimadan boshlanadi? Ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini rejalashtirish tashkil etish, o‘quv vaziyatlari bo‘yicha qaror qabul qilish, kafolatlangan natijani qo‘lga kiritish, nazorat qilish, kasbiy faoliyatni muvofiqlashtirish bilan belgilanadi.

Pedagogik mahoratni oshirishda boshqaruv san’atidan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda ta’lim menejmentida dolzarb bo‘lgan masalalar mavjud:

1. Ta’limda maqsadni aniq qo‘ya bilish va bosh g‘oyalar yechimiga e’tibor berish.
 2. Pedagogik jamoada so‘z va ish birligini yo‘lga qo‘yish, sog‘lom muhit yaratish.
 3. Ta’limda Davlat ta’lim standartlari talablari ijrosini sifatli kafolatlash.
 4. Jamoa va o‘quvchilar orasida ongli intizomni shakllantirish.
 5. Har bir kasbdosh pedagogga samimiyl munosabatda bo‘lish.
 6. Ijodkorlik, tezkorlik va ishonchni qozonish, keng qamrovli fikr yuritish, maqsad va istiqbolni avvaldan ko‘rish, qilingan ishlarni tahlil etish, tanqidiy qarash, taklif kiritish, tatbiq etishga erishish.
 7. Pedagogik jamoaning ichki tartib-qoidalariga amal qilish.
 8. Ta’lim-tarbiya ishlarini olib borish uchun sog‘lom muhit va moddiy sharoit yaratish.
 9. Ish yuritishda davlat, nodavlat tashkilotlar, ta’lim muassasalari, oila, mahalla bilan samimiyl hamkorlik o‘rnatish va ta’lim-tarbiya sifatini oshirish.
 10. Ta’lim-tarbiya jarayonida sifat va samaradorlikni ta’minalash kabilardan iborat.
- Bunda pedagog faoliyati quyidagi shartlarga javob berishi lozim:
- tarbiya va tahsil oluvchilarga ta’sir o‘tkaza olish;
 - talabchanlik;
 - mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish;
 - obro‘-e’tiborga ega bo‘lish;
 - pedagogik jamoa ishonchini oqlash;
 - o‘quvchilar faoliyatini to‘g‘ri idrok etish;
 - ta’lim-tarbiya natijalarini kuzata bilish, baholay olish, zarur holatlarda tanqid qila olish.

Pedagogga xos sifatlar: tashkilotchilik; kasbiy ishchanlik; muomalada kirishimlilik; har qanday vaziyatda o‘zini tuta olish, vazminlik; kasbiy mahorat;

uddaburonlik, bunyodkorlik; maslahat bera oladigan; aql-idrokli; o‘ziga ishonadigan; o‘rnak bo‘la oladigan; nazorat qila olish.

O‘qituvchining kasbiy pedagogik mahoratining asosiy mazmun mohiyatini mezonlari va ko‘rsatkichlari-pedagogik ijodkorlik, pedagogik texnika sirlarini puxta egallah va yuksak kasbiy salohiyatga – professionalizmga ega bo‘lish, ta’lim-tarbiya jarayonida tinglovchilar bilan o‘zaro muloqot olib borish taktikasini qo‘llash va ularga muvaffaqiyatli ta’sir ko‘rsatishning shakl, usul, vositalaridan xabardorligi, pedagogik qobiliyatlarini namoyish eta olish, nutqining ravonligi, tashkilotchilik qobiliyati, ma’naviy ma’rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etish hamda amalga oshirish, pedagogik faoliyat jarayonida xulq-atvorini va hissiyotlarini jilovlay olish va boshqa xususiyatlardan iborat. Demak, yuksak pedagogik mahorat egasi, ya’ni professional kasb egasi bo‘lish uchun o‘qituvchi o‘zida ham ilg‘orlikni, ham ijodkorlikni, ham novatorlikni (yangilikka intilishni) tarbiyalashi lozim.

Buni quyida keltirilayotgan o‘qituvchining kasbiy mahorati mazmuni va mohiyati asosida ko‘rishimiz mumkin:

Mutaxassislarning tadqiqotlari natijasida o‘kituvchilarni pedagogik bilimlar, pedagogik mahoratni egallahlarining besh darajasi aniqlangan: axborot, tezaurus, uslubiy, texnologik, tadqiqot.

Axborot darajasida asosiy vazifa mavjud bilim hakida axborot olish imkoniyatini ta’minlashdan iborat.

Tezaurus darajasi fan tili bilan bog‘liq. Kasbiy professionallikka ega bo‘lgan pedagog bu tilni bilishi shart, chunki bilimlar ularni lozim darajada qabul qilish va tushunishni taqazo etadi. Tezaurus darajasi bilim va inson o‘rtasidagi axborotga oid to‘cuqlarnu bartaraf etish va mutaxassislarning fan tilini erkin o‘zlashtirishga imkoniyat yaratishni nazarda tutadi.

Uslubiy daraja nafaqat ilmiy bilimlar, balki kasbiy ko‘nikmalarning ham mavjudligini, pedagogik nazariyotchilar tomonidan ishlab chiqilgan uslublarni o‘zlashtirilganligini anglatadi.

Texnologik daraja ilmiy bilimlarni va tavsiya etilgan ilg‘or tajribani amaliyotga joriy etish maqsadida ularni sifatlari va samarali aks ettirishni nazarda tutadi. Aks ettirish to‘g‘ridan-to‘g‘ri nusxa ko‘chirish degani emas. Bunda muayyan metod qo‘llanilayotgan shart-sharoit, xususan, tinglovchilarning tayyorgarlik darajasi, ularning odatlari, *o‘qituvchi-pedagoglarning texnologik madaniyat va pedagogik mahorat darajasi hisobga olinishi lozim*.

Ta’kidlash zarurki, o‘qituvchining texnologik madaniyati pedagogik madaniyat va pedagogik mahoratining tarkibiy qismi hisoblanadi. Texnologik madaniyatli va yuksak kasbiy pedagogik professionallikka ega o‘qituvchi pedagogika fani va amaliyotini birlashtiradi.

Tadqiqot darajasi shu bilan tavsiflanadiki, o‘qituvchi ilmiy bilimdan foydalanuvchidan uni yaratuvchisiga aylanadi. Yangilik yaratuvchi o‘qituvchi-pedagoglar amaliyotning ilmiy salohiyatini, tadqiqot faoliyatni uchun kerakli tadqiqot maydonining mavjudligini namoyish eta oladilar.

Shunday qilib, pedagogik mahorat o‘qituvchi-pedagoglarning ko‘nikmalari tarkibiga amal qiladi va amaliy faoliyatda ular orqali ruyobga chiqadi. Shu sababli pedagogik mahorat o‘qituvchining pedagogik madaniyati va pedagogik ko‘nikma, etikasining ajralmas qismi hisoblanadi.

Pedagogik ijodkorlik. Oliy ta’lim muasasasi ta’lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish bevosita ta’lim jarayonini amalga oshiruvchi o‘qituvchilarga alohida talablar qo‘yadi. Amaliy faoliyatga ijodkorona tatbiq etishning asosiy tayanch nuqtalari hisoblangan, o‘z-o‘zini takomillashtirish texnologiyasining konseptual asoslarini, asosiy qoidalaring mohiyatini o‘zlashtirgan pedagog talabalarga ta’lim va tarbiya berishda innovatsion g‘oyalarning yetakchisi bo‘la olishi mumkin. Bu esa quyidagilarni taqozo etadi:

- a) u talabani tinglay biladi va uni eshita oladi, shaxsiy fikrlarini ifodalashiga, ochiqdan-ochiq qarshi chiqishiga bag‘rikenglik munosabatida bo‘la oladi, o‘zaro tenglik va ishonchga asoslangan munosabatlarni o‘rnata biladi, vaziyatdan munosib ravishda chiqadi;
- b) pedagog yangi g‘oyalarni hamisha qo‘llab-quvvatlaydi, g‘oya va fikrlarini bemalol, erkin ifodalash mumkin bo‘lgan muhitni yarata oladi;
- v) qiyin yoki nizoli vaziyatlarda aybdorni emas, keskinlik va ixtiloflarning kelib chiqish sabablarini izlaydi;
- g) talabalar jamoasida mo‘tadil psixologik muhitni yarata oladi, ularning muvaffaqiyatlari va xizmatlarini tan ola biladi.

Ijodkor pedagog o‘z kasbining yetuk ustasi – ustoz pedagog, ma’lum pedagogik mahoratga ega shaxs hisoblanadi. Pedagog barcha vaziyatlarda ham o‘z faoliyatini muvaffaqiyatli olib borishi uchun doimiy ravishda o‘z bilim va mahoratini oshirib, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni, ilg‘or pedagogik tajribalarni, metod va usullarni muntazam o‘rganib, kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirib boradi.

1.2. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlar. Ta’lim sohasidagi nufuzli Xalqaro ekspertlar tomonidan ta’lim-tarbiya jarayoniga ikki xil kompetensiyalarni uyg‘un joriy etish taklif etilmoqda. Bular: “Hard skills” - (ingliz. “qattiq” malaka) kasbiy kompetensiyalar hamda “Soft skills” - (ingliz. “yumshoq”, “moslashuvchan” malaka) universal (umumiy) kompetensiyalar.


“Hard skills” - malaka darajasini aniqlash va o‘lchash mumkin bo‘lgan bilimlar majmui sifatida (*matnni kompyuterda terish malakasi, avtomobilni boshqarish ko‘nikmasi, ingliz tilida gapirish, matematik bilim, kompyuter dasturlaridan foydalanish ko‘nikmasi*), “soft skills” aniq va umumiyligida o‘lchov birligiga ega bo‘lmagan moslashuvchan, egiluvchan malakalar (*creatativlik, jamoada ishlash ko‘nikmasi, hissiy barqarorlik, mas’uliyat, tashabbuskorlik va h.k.*) sifatida qayd etilmoqda.

“Hard skills” - “qattiq” malakaga ega bo‘lish uchun muayyan kasb bo‘yicha aniq bilim zarur bo‘ladi va bu ko‘nikmalarning mavjudligi imtihon o‘tkazish orqali aniqlanadi.

“Soft skills” - “yumshoq” kompetensiyalar (*ijodkorlik, muloqotga kirishishi layoqati, jamoada ishlash qobiliyat, qat’iyatlilik, tanqidiy fikrlash va h.k.*) esa ko‘p hollarda inson xarakteri va hayotiy tajribasiga bevosita bog‘liq bo‘lganligi sababli shaxsiy fazilat, xislat, qobiliyat sifatida ham talqin etiladi.

“Soft skills” tushunchasi tadqiqot predmeti (ob’ekti) sifatida ilmiy muomalaga kirishi ilk marta 1959-1972 yillarda AQSh armiyasi shaxsiy tarkibini tayyorlash jarayonidagi islohotlar bilan bog‘liq. Askarlarning shaxsiy va jangovor kompetensiyalarini shakllantirish bo‘yicha tadqiqotlarga rahbarlik qilgan psixolog, ehtiyojlar nazariyasi muallifi, mavzular bo‘yicha apperseptiv testlarni baholashning yangi metodikasini ishlab chiqqan professor Devid Makkleland AQSh davlat departamenti xizmatiga xodimlarni tanlash jarayonida ilk marta “yumshoq” (soft) kompetensiyalar va ularni baholash tushunchasini qo‘llaydi.

XXI asrga qadar ta’lim tizimida yoshlarga asosan “hard skills” – “qattiq” malaka darajasini berishga e’tibor qaratib kelindi. Ya’ni, muayyan kasbni puxta egallash, uning sir-asrорларини то‘лиқ о‘злаштириш – shaxsning yetuk mutaxassis ekanligini belgilovchi asosiy faktor sifatida qayd etilgan.



XXI asr pedagogikasi esa zamonaliviy dunyoda bu xislatlarning yetarli emasligi, endilikda tafakkurni rivojlantirish, kreativ makon, muhit, kreativ shaxs, kreativ mahsulot yaratishga bo‘lgan ehtiyoj asosida ish tutish lozimligini uqtirmoqda.

Taniqli biznes-trener, «SBA University» asoschisi, tadbirkor V.Shipilov mazkur bilim, malakalarni shakllantirish jarayonida uning darajalarini quyidagicha tasniflagan:

DARAJA	DARAJA TASNIFI
5 Mohir (professional, ustasi farang) mutaxassis (usta, master)	<i>Mahoratni rivojlantirishning oliy (eng yuqori) darjasasi</i> O‘z sohasida yuqori darajadagi professional, ekspert (<i>avtoritet</i>) darajasiga erishgan mutaxassis.

	Muayyan yo‘nalish (<i>kasb, ixtisoslik</i>) bo‘yicha malakalarni rivojlantirish, yanada takomillashtirish, boshqalarga o‘rgatish kompetensiyalariga ega shaxs.
4 Ilg‘or mutaxassis	<i>Mahoratni rivojlantirishning yuqori daroji</i> Yuqori malakaga ega bo‘lgan, o‘z ko‘nikmalarni murakkab jarayonlar va nostandard holatlarda ham to‘g‘ri qo‘llash tajribasiga ega mutaxassis.
3 Tajribali mutaxassis	<i>Mahoratni rivojlantirishning o‘rtacha daroji</i> O‘z sohasi bo‘yicha yetarli bilim va malakaga, tajribaga ega bo‘lgan va bu bilimlarini amaliyotga samarali qo‘llay oluvchi mutaxassis.
2 Rivojlanayotgan (havaskor) mutaxassis	<i>Mahoratni rivojlantirishning past daroji</i> Muayyan malaka va ko‘nikmalarni egallash jarayonidagi shaxs. Uning ahamiyati va mohiyatini anglagan, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilayotgan, ammo uni amaliyotda barqaror qo‘llay olmayotgan shaxs.
1 Malakasiz daraja	<i>Mahoratni rivojlantirishning eng past daroji.</i> Malaka darajasiga ega bo‘lмаган, uning ahamiyati va mohiyatini тушунмаган, bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirishga harakat qilmayotgan shaxs

Muayyan yo‘nalishdagi qobiliyat va malakalarni rivojlantirish uchun esa aniq hayotiy bilim va tajribaga ega bo‘lish talab etiladi.

Shundagina shaxs kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan yangi imkoniyatlardan foydalanish malakasiga ega bo‘ladi.

Bu yo‘lda asosiy to‘siqlar nimalardan iborat bo‘ladi:

- Qaerda, nima uchun va qanday harakat qilishni bilmaslik, rejadagi mavhumliklar va uning reallikdan uzoqligi;
- Amaldagi ishda va umuman hayotda biror narsani o‘zgartirishga tayyorlik (istak)ning yo‘qligi;
- Rejalashtirishda konstruktiv, amaliy jarayonlarning ustun kelishi va hissiy holatni inobatga olmaslik;
- Faqat natijasi oldindan ma’lum va sinovdan o‘tgan vazifalarni amalga oshirish hamda boshqa yangi tashabbus va loyihalarni hal qilish, zimmasiga olishdan qo‘rqish;
- O‘z xatti-harakatlarini baholash va natijalarni oldindan bashorat qilish malakasining yetishmasligi;
- O‘z harakatlarining muvaffaqiyati to‘g‘risida fikrlarga qiziqishning yo‘qligi.

Aynan shu jarayonlar shaxsning o‘z xohish irodasiga ko‘ra “yumshoq” malakalar (soft-skills) hamda “qattiq” malakalar (hard-skills)ga ega bo‘lishi uchun zamin yaratadi.

Kompetentli yondashuv ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning asoslaridan biri deb hisoblanadi. Bugungi kunda ta’lim sifatini aynan mutaxassisning kompetentligini rivojlantirish bilan ta’minalash mumkin, bunga ta’lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalarni joriy etish orqali erishish mumkin. Shunday texnologiyalardan biri modulli ta’lim texnologiyasidir. Ta’lim-tarbiya jarayoniga modulli-kompetentli yondashuv ta’lim jarayonida shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur bo‘lgan tayanch, kasbiy va maxsus kompetensiyalar kompleksini loyihalashtirish imkonini beradi.

Ta’limning amaliy va ijtimoiy jihatlarini birlashtirish orqali ta’lim jarayonida qator yangi imkoniyatlar hosil bo‘ladi, kompetentli yondashuv asosidagi ta’limni amalga oshirish uchun qo’shimcha sharoitlar yaratiladi, ya’ni:

- Bilimlarning tizimliligi va fanlararo bog‘lanishi ta’minalandi;
- Ta’lim mazmunining dinamik ravishda kengayib borishiga imkon yaratiladi;
- Ishlab chiqarish texnologiyalariga mos ravishda mutaxassislarning faoliyat yuritish rejalarini tuzish imkoniyatlari paydo bo‘ladi;
- Lavozim vazifalari va majburiylari bilan tanishtiriladi;
- Harakatlar va bajariladigan ishlarni amalga oshirishning yo‘llari ko‘rsatiladi;
- Bo‘lajak mutaxassislarning lavozimga oid va shaxsiy manfaatlari hisobga olinadi.

Bu holda asosiy ta’lim dasturlari mazmunini loyihalashtirish modulli ta’lim tizimi o
r
q

a Modulli ta’lim – ta’lim oluvchining mustaqil ravishda unga taqdim etilgan harakatlar maqsadli dasturi, axborot banki, qo‘yilgan didaktik maqsadlarga erishish uchun uslubiy ko‘rsatmalarini qamrab olgan maxsus dasturdir.

Modulli ta’limning boshqa ta’lim tizimlaridan quyidagicha prinsipial farqlari bor:
a – ta’lim mazmuni tugallangan, mustaqil modullar shaklida taqdim etiladi;
m – o‘qituvchining ta’lim oluvchi bilan muloqoti tubdan yangi asosda amalga oshiriladi. Ta’lim oluvchi o‘qituvchi bilan bo‘ladigan har bir uchrashuvga shaxsiy bilim brttirish qobiliyatlarini hisobga olgan holda modul yordamida dastlabki tayyorgarlikni gma’lum darajaga yetkazadi.

a Modul o‘quv dasturi – yaxlitlik, nisbatan mustaqillik va mazmunining mantiqiy tugallanganligi, tuzilmaning moslashuvchanligi, ta’lim natijalarini nazorat qilish va baholash tezligi xususiyatlariga egadir.

s Modulli-kompetentli yondashuv asosidagi o‘quv jarayoni shunday tashkil etiladiki,
h

i

r

:

bunda ta’limning maqsadi sifatida ta’lim oluvchining kasbiy kompetensiyalarining yig‘indisi, unga erishish vositasi sifatida esa kasbiy ta’limning mazmunini va tuzilmasini modulli tarzda qurish hisoblanadi.

Modul ta’lim dasturining muayyan kasbiy kompetensiyani yoki kometensiyalar guruhini shakllantirishga qaratilgan mustaqil birligi hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, modul – ta’lim dasturining bir yoki bir nechta kompetensiyani shakllantiruvchi tugallangan birligi hisoblanadi hamda ta’lim oluvchilarining bilim va ko‘nikmalarining nazorati bilan yakunlanadi. Demak, modulli ta’lim dasturi muayyan kompetensiyalarni egallahsga qaratilgan bo‘lib, ma’lum ketma-ketlikda joylashgan modullarning yig‘indisidan iborat.

Bunda kompetensiya tushunchasi *bilish va tushunish* (nazariy bilim va tushunchalarga egalik, o‘rganish va tushunish qobiliyati), *qanday harakat qilishni bilish* (bilimlarni amaliy va tezkor ravishda muayyan vaziyatlarda qo‘llay olish), *qanday bo‘lishni bilish* (qadriyatlarni bilish va jamiyatda o‘z o‘rnini topish)ni o‘z ichiga oladi. Boshqacha qilib ifodalanadigan bo‘lsa, kompetentlik sub’ektning kognitiv, motivatsion, qadriyatlarga oid va amaliy jihatlarni birlashtirgan integrativ xususiyati bo‘lib, biror-bir sohada muvaffaqiyatli harakat qila olishida ko‘rinadi.

Talabalar tomonidan modullarni o‘rganishda o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari mavjud bo‘ladi. Har bir modul uchun auditoriya yuklamasi, talabalarnning mustaqil ishlari, kurs ishlari, joriy, oraliq va yakuniy nazoratlar, shuningdek, amaliyotlar, talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari, bitiruv malakaviy ishning boblarini yozish va hokazolar taqsimlangan bo‘ladi. Shu tarzda muayyan darajani berish uchun rasmiy ravishda tan olinadigan, modullarning yig‘indisidan iborat bo‘lgan ta’lim dasturi shakllantiriladi.

Fanning kichik bir qismi, didaktik birligi ham tor ma’noda modul deb qabul qilinishi mumkin. Fanning bir semestr davomida o‘qitiladigan kursining mantiqiy jihatdan tugallangan (bo‘lim, bob, mavzu) va belgilangan nazorat turi bilan yakunlanadigan qismi o‘quv fanining moduli bo‘lishi mumkin.

Modulli-kompetentli yondashuv asosida ta’lim dasturlari mazmunini loyihalashtirish texnologiyasi quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

- 1) ish beruvchilar bilan hamkorlikda muayyan ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tayyorlanadigan mutaxassisning asosiy funksiyalari ro‘yxati belgilab olinadi;
- 2) belgilangan funksiyalarni amalga oshirish uchun zarur va yetarli bo‘lgan maxsus kasbiy kompetensiyalarning to‘plami aniqlanadi;
- 3) nazariy bilimlariga tayangan holda talaba hal qila olishi kerak bo‘lgan amaliy harakatlar va bajariladigan ishlarning namunaviy asosi sifatidagi tipik kasbiy vazifalar, muammolar va vaziyatlar to‘plami loyihalashtiriladi;
- 4) ta’limning maqsadlari, mazmuni, o‘zlashtirish usullari va o‘zlashtirilganlik

darajasini aniqlash yo'llarini o'z ichiga olgan ta'lim modullari tizimi ishlab chiqiladi;

5) ta'lim modullarining muayyan to'plamidan asosiy ta'lim dasturlari loyihalashtiriladi;

6) maxsus kasbiy kompetensiyalarining shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlari va ularni baholash usullari ishlab chiqiladi.

Ta'lim moduli – ta'lim maqsadlari va mazmunini belgilashning avtonom birligi bo'lib, ularni o'zlashtirish va nazorat qilish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga oladi hamda bir yoki bir nechta kompetensiyani yoki biror murakkab kompetensiyaning bir qismini shakllantirishni ta'minlaydi.

Shunday qilib ta'lim moduli tuzilmasiga quyidagilar kiradi:

a) ta'lim maqsadlari va ularga erishishning ob'ektiv mezonlari va ko'rsatkichlari;

b) bitta yoki bir nechta kompetensiyani yoki biror murakkab kompetensiyaning bir qismini shakllantirishni ta'minlaydigan ta'lim mazmuni;

v) maqsad va mazmunga mos keladigan pedagogik texnologiyalarni tanlash orqali ta'lim moduli mazmunini o'zlashtirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar;

g) ta'lim modulini o'zlashtirish vositalari, metodlari va nazorat qilish usullari.

Ta'lim modulli tizimining moslashuvchanligi va variativligi ayniqsa, hozirgi davrda dolzarb bo'lmoqda, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida ishchi o'rnlarning doimiy sifatli va miqdoriy o'zgarishlari kuzatib turiladi. Kasblarga o'rgatish modulli tizimining mohiyati – talabalarning birin-ketin ta'lim birliklari modullarini o'zlashtirishdan iboratdir. Bu holatda ta'lim oluvchi unga taqdim etilgan dastur bilan mustaqil ravishda ishlashi mumkin. Ta'lim oluvchi o'ziga aniq bir maqsadni, axborot texnika bazasi va didaktik maqsadlarga erishish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalarni belgilab oladi.

Kompetentli yondashuvga asoslangan ta'lim imkoniyatlarini ishga solish va samarali qo'llashda ta'limning modulli tizimlarini joriy qilish yaxshi samaralar beradi, natijada bo'lajak o'qituvchining maxsus kasbiy kompetensiyalarini muvaffaqiyatli shakllantirish va jamiyat oldiga qo'yilgan maqsadlarga muvofiq ravishda zamonaviy raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash uchun zamin yaratiladi.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiyligi mohiyatini to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining ma'noni tushunib olish talab etiladi. Ken Robinsonning fikriga ko'ra, "kreativlik – o'z qiymatiga ega original g'oyalar majmui" sanaladi. Gardner esa o'z tadqiqotlarida tushunchani shunday izohlaydi: "kreativlik – shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo'lib, u o'zida muayyan yangilikni aks ettirishi va ma'lum amaliy qiymatga ega bo'lishi lozim". Emebayl (1989 y.)ning yondashuvi nuqtai nazaridan ifodalansa, kreativlik "muayyan soha bo'yicha o'zlashtirilgan puxta bilimlar bilan birga yuqori darajada nooddatiy ko'nikmalarga ham ega bo'lish" demakdir.

Ko‘plab tadqiqotlarda intellekt va kreativlik o‘rtasidagi aloqadorlik xususida turlicha qarashlar mavjud. Bir guruh tadqiqotchilar ular o‘rtasida hech qanday bog‘liqlik yo‘q ekanligini uqtirsalar, ikkinchi guruh vakillari kreativlik va intellekt darajasi bir-biriga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydilar (Kim, 2005 y.).

“Kreativlik” tushunchasi o‘zida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G‘arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan’anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg‘usi va erkinlik mavjud bo‘lishiga e’tiborni qaratadilar (Myordok, Ganim, 1993 y.; Sternberg, 1985 y.). Sharqliklar esa, aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug‘ilish jarayoni, deb tushunadilar (Xui, Sternberg, 2002 y.; Rudovich, Xui, 1997 y.; Rudovich, Yue, 2000 y.). Garchi g‘arblik va sharqliklarning kreativlik borasidagi qarashlari turlicha bo‘lsada, biroq, har ikki madaniyat vakillari ham mazkur sifat va unga egalikni yuqori baholaydilar (Kaufman, Lan, 2012 y.).

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. ***Har tomonlama fikrlash*** talabalardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda ***bir tomonlama fikrlash*** esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda masala yuzasidan bir va ko‘p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo‘lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda talaba yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda “kreativlik” tushunchasini quydagicha sharhash mumkin:

Kreativlik (lot., ing. “create” – yaratish, “creative” – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati


Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, “talabalar e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalg etishni ta’minlaydi.

Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarning mutaxassislari kabi o‘qituvchilar ham o‘zlarida kreativlik sifatlari mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular Ye.P.Torrens tomonidan 1987 yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o‘tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini

ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o‘ziga xos (orginal)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo‘yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O‘quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga beriladigan javoblar aynan mana shu to‘rtta mezonni qanolantirishi lozim¹.

E.P.Torrens fikricha, “kreativlik” tushunchasi negizida quyidagi yoritiladi:

-  муаммога ёки илмий фаразларни илгари суринш.
-  фаразни текшириш ва ўзгартириш.
-  қарор натижаларини шакллантириш асосида муаммони аниqlashi.
-  муаммо ечимини топишда билим ва амалий ҳаракатларнинг ўзаро қарама-каршилигига нисбатан таъсирчанлик.



Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin². O‘qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etilaigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvida aks etadi. So‘nggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.


Pedagog tomonidan ushbu shakllarda kasbiy faoliyatning samarali tashkil etilishi uning kreativligi qay darajada ekanligiga bog‘liq bo‘ladi.

Pedagogning kreativlik potensiali uning umumiy xususiyati sifatida aks etadi. U ijodiy faoliyatning dastlabki sharti va natijasi sanaladi. Mazkur sifat shaxsning o‘z-o‘zini namoyon qilish layoqatiga egalikni va tayyorlikni ifodalaydi. Qolaversa, kreativ potensial negizida har bir mutaxassisning shaxsiy qobiliyatları, tabiiy va ijtimoiy quvvati yaxlit holda namoyon bo‘ladi. Kreativ potensial bilish jarayoniga yo‘naltirilgan ijodkorlik bilan chambarchas bog‘liq.

Pedagog kreativlik potensialiga ega bo‘lishi uchun kasbiy faoliyatida quyidagilarga e’tiborini qaratishi zarur:

¹ Ўша асар, 4-5-бетлар.

² Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 4.



Har bir pedagogning o‘zini o‘zi rivojlantirishi va o‘zini o‘zi namoyon eta olishi bevosita uning kreativlik qobiliyatiga egaligi bilan bog‘liq.

Odatda pedagoglarning kreativlik qibiliyatiga ega bo‘lishlari pedagogik muammolarni hal qilishga intilish, ilmiy-tadqiqot ishlari yoki ilmiy loyihalarni amalga oshirish va o‘zaro ijodiy hamkorlikka erishishlari orqali ta’minlanadi.

Pedagog o‘z-o‘zidan ijodkor bo‘lib qolmaydi. Uning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash orqali shakllantiriladi va u astasekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning kreativlik qibiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni yechish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e’tibor qaratishi zarur.

Muammoli masala va vaziyatlarni hal qilar ekan, pedagogning masala yechimini topishga ijodiy yondashishi unda hissiy-irodaviy sifatlarning rivojlanishiga yordam beradi. Pedagog o‘z oldiga muammoli masalalarni qo‘yish orqali mavjud bilimlari va hayotiy tajribalariga zid bo‘lgan dalillar bilan to‘qnash keladi. Buning natijasida o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganishga nisbatan ehtiyoj sezadi.


Pedagogning kreativ potensiali quyidagi tarkibiy asoslarni o‘z ichiga oladi (1-rasm):



Pedagoglarning kreativlik imkoniyatini aniqlovchi mezonlar va ularning darajalari

Kasbiy faoliyat samaradorligini baholashda pedagogning ijodkorligi – kreativ potensiali darajasini baholash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kreativlik potensiali darajasini aniqlovchi mezonlar quyidagilar sanaladi (2-rasm):



Ushbu mezonlar pedagoglar kreativ potensialini uch darajada aniqlash imkonini beradi (1-jadval):

1-jadval.**Pedagog kreativ potensialining muhim darajalari**

№	Darajalar	Daraja xususiyatlari
1.	Yuqori	Muntazam ravishda turli tashabbuslarni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligini izchil namoyish etib boradi, kreativ jihatdan o‘ta faol, izlanuvchan.
2.	O‘rta	Ba’zan u yoki bu tashabbusni ilgari suradi, kreativ qobiliyatga egaligi muntazam bo‘lmasa-da, ammo namoyon bo‘ladi, kreativ jihatdan bir qadar faol, izlanuvchan bo‘lishga intiladi.
3.	Past	Garchi u yetarlicha asoslanmagan bo‘lsa-da, tashabbusni ilgari surshga intiladi, kreativ qobiliyati yetarlicha namoyon bo‘lmaydi, izlanuvchan bo‘lishga intilmaydi.

Shunday qilib, malaka oshirish kurslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida pedagoglarning kreativlik imkoniyatlarining aniq mezonlar asosida aniqlash, daraja ko‘rsatichlarini baholash asosida bu boradagi yutuq va kamchiliklarni belgilash, yutuqlarni boyitish, kamchiliklarni bartaraf etish chora-tadbirlarini belgilash mumkin bo‘ladi.

1.3. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

Pedagogik sohasida mehnat qilayotgan hozirgi zamon o‘qituvchisini asosli ta’riflashlardan biri uning loyihaviy faoliyatga nisbatan qobiliyatidir. Loyihaviy faoliyat yangilanish darajasiga oiddir, chunki u borliqni o‘zgartiradi, tegishli texnologiya negizida quriladiki, uni o‘zgartirish, o‘zlashtirish va takomillashtirish mumkin. Loyihalash asoslarini o‘zlashtirish dolzarb, chunki, birinchidan, mazkur texnologiya ta’lim tizimini tashkil qilishning barcha bosqichlarida keng qo‘llanishga ega. Ikkinchidan, ijtimoiy madaniyat loyihalash mantig‘i va texnologiyasini bilish, tahliliy, tashkiliy boshqarish vazifalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi. Uchinchidan, loyihaviy texnologiyalar mutaxassisning raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Talabalarga ta’lim va tarbiya berishning muvaffaqiyatliligi va natijaga egaligi pedagog tomonidan loyihaviy faoliyatni qanchalik o‘zlashtirib olganligiga bog‘liq, chunki bu faoliyat vaziyatga qarab texnologik yechimlarni takomillashtirishga qodir, yangi ta’lim yondashuvlari va usullarini ishlab chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Loyihaviy faoliyat, V.S.Bezrukovaning fikricha, “ta’lim oluvchilar va pedagoglarning bo‘lajak faoliyatlarining asosiy qismlarini birinchi galda ishlab chiqishdan iborat”. Har qanday loyihalash ob’ektining, bu pedagogik tizimmi, pedagogik jarayonmi, pedagogik vaziyatmi, uning asosiy qismi – uning

ishtirokchilarining faoliyati hisoblanadi. Shuning uchun, birinchi navbatda, o‘qituvchi va ta’lim oluvchining faoliyati loyihalashtiriladi. Loyihalash istalgan pedagogning (tashkilotchilik, bilish va muomala qila olish bilan bir qatorda) vazifasidir, mакtabda o‘quv-tarbiya jarayonini texnologiyalashtirishga imkon yaratadi. Muallif yana pedagogning loyihaviy faoliyati bilan pedagogik texnologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘lanishni alohida ta’kidlaydi: “loyihalash jarayonida va u orqali pedagogik jarayon ishtirokchilarining rivojlanishini ta’minlaydigan pedagogik texnologiya ishlab chiqiladi”. Biz texnologiya loyihalash mahsulidir, degan fikrga qo‘shilamiz.

Loyihaviy faoliyatning tarkibiy asoslari quyidagilardir:

- 1) muammo tahlili;
- 2) maqsadning qo‘yilishi;
- 3) unga erishish uchun vosita tanlash;
- 4) axborotni izlash va qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish;
- 6) olingan natijalarni baholash va xulosalar.

Predmetli faoliyat uch qismdan tashkil topadi:

- 1) predmetli;
- 2) faoliyatli;
- 3) muloqatli.

Loyihaviy faoliyat rivojlantiruvchi ta’lim uslublaridan biri bo‘lib, mustaqil tadqiqotchilik ko‘nikmasini hosil qilishga yo‘naltiriladi (muammoning qo‘yish, axborotlarni to‘plash va uni qayta ishlash, tajriba-sinovlar o‘tkazish, olingan natijalarni tahlil qilish) va ijodiy qobiliyat va mantiqiy fikrlashning rivojlanishiga olib keladi, ta’lim jarayonida olingan bilimlarni birlashtiradi, hayotiy muhim muammolarni mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Loyihaviy faoliyatdan kutilayotgan maqsad ta’lim oluvchilar tomonidan turli o‘quv fanlarini o‘rganish davrida mujassamlashgan bilim, mahorat va ko‘nikmalarni tushunish va qo‘llay olishdan iborat. Pedagogning loyihalash faoliyatidan kuzatilgan maqsad:

- rejorashtirishga o‘rgatish (pedagog maqsadni aniqlay olishi, ish davomida qo‘yilgan maqsadga erishishning asosiy bosqichlarini ifoda eta olishi);
- axborot materiallarni yig‘ish va uni qayta ishlash ko‘nikmasini shakllantirish (pedagog kerakli axborotni tanlay olishi va undan to‘g‘ri foydalana olishi lozim);
- tahlil qila olish ko‘nikmasi (ijodiy va tanqidiy tafakkur);
- yozma hisobot tuza olish ko‘nikmasi (ish rejasini tuza olishi, axborotlarni aniq taqdimot etish, izohlarni rasmiylashtirish, zaruriy adabiyotlar (bibliografiya) haqida tushunchaga ega bo‘lish);
- ishga ijobiy munosabatda bo‘lishni shakllantirish (pedagog tashabbus ko‘rsatishi, ishni belgilangan ish rejasini va tartibi bo‘yicha o‘z vaqtida bajarishga harakat

qilishi kerak).

Rossiyalik olim G.Ye.Muravevaning fikricha, pedagog tomonidan loyihalash faoliyatni yuqori darajada o'zlashtirganligini oldindan ayta olish, rejalashtirish, tuza olish va modellashtirish ko'nikmalarini shakllanganlik darjasini belgilaydi. Bu tushunchalarning va ularning mazmunini alohida qarab chiqamiz. Tadqiqotimiz ob'ekti loyihalash faoliyati bo'lib, u oldindan ayta olish faoliyati bilan jips aloqada bo'ladi, shunga ko'ra bashorat qilishni (oldindan ayta olishni) batafsilroq qarab chiqiladi. Dastlabki tushuncha – bashorat qilish.

Bashorat qilish – kelajakda biron-bir voqealari natijasini oldindan ko'rmoq, oldindan aytib bermoq. Didaktik bashorat qilish – didaktik voqealar rivoj topishini ilmiy tarzda oldindan ko'ra olish jarayoni tushuniladi.

Bashorat qilish loyihadan farqli ravishda o'zgarmas mazmunga ega. Bashorat qiluvchi modellar asosida ta'llim jarayonini jadallashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi. Didaktik bashorat qilish, shuningdek, pedagogning o'qitish faoliyatini rejalashtirishga asos sifatida namoyon bo'ladi. Bashoratlashning oddiy uslubiyoti tadqiqotning quyidagi asosiy bosqichlarini o'z ichiga oladi: "bashoratlashdan oldingi mo'ljal (ob'ekt, predmet, muammo, maqsadlar, vazifalar, ilgari ketish vaqt, ishchi farazlar, usullar, tadqiqot tarkibi va tashkil etishni aniqlash); bashoratlash muhiti (ob'ekt rivojlanishiga ta'sir etuvchi, bashoratlashning ixtisoslashmagan, qo'shni tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlarni toplash); dastlabki model, ya'ni ob'ekt xarakteri va tarkibini yorituvchi ko'rsatkichlar, o'lchamlar tizimi ma'lumotlarini toplash; izlash bashorati (dastlabki modelning kelajakdagi loyihasi, bunda bashorat muhiti omillarini e'tiborga olgan holda kuzatiladigan holatlar bo'yicha hal qilinishi talab etiladigan kelajakdagi muammolar aniqlanadi); me'yoriy (berilgan ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rsatilgan maqsad va me'yorlarga muvofiq bo'lgan kelajakdagi dastlabki model loyihasi); ishonchlilik darajasini baholash va bashoratlovchi modellarni aniqlash, odatda, xolis mutaxassislardan so'rash yo'li bilan; bashoratlovchi modellarni taqqoslash asosida yechimlarni ixchamlashtirish uchun tavsiyalar tayyorlash". Bashoratlash – ob'ekt haqida oldin bo'lgan ma'lumotlarni olish jarayoni, ilmiy asosda oldindan asoslashtirilgan holatlar va usullar (B.S.Gershunskiy). Bashoratlash biror-bir holat, jarayon mavjud yoki uning vujudga kelishi uchun shart-sharoit bor deb oladi. Loyihalash jarayoni esa kelajakdagi, ya'ni, hali mavjud bo'limgan ob'ekt loyihasini tayyorlashdan iborat. Loyihalash bashorat qilish qismini o'z ichiga oladi yoki mavjud bashoratga tayanadi.

Ikkinci tushuncha – rejalashtirish.

Rejalashtirish – biror narsaning rejasi yoki loyihasini solishtirish bo'lib, reja – "umumiyligi maqsadga birlashgan amalga oshirilishi uchun dastlab bir qancha oldindan uylab qo'yilgan harakatlar, tadbirlarni bajarish talab etiladigan niyat, loyiha,

topshiriqdir”

Ko‘pincha rejalashtirish va loyihalash sinonimlar tarzida foydalaniladi. Reja va loyihani tuzish maqsadi nuqtai nazaridan, haqiqatda farq yo‘q. Reja ham, loyiha ham kelgusi aniq voqelikni yoritadi va uni amalga oshirish uchun tuziladi. Lekin, fikrimizcha, loyihalash rejalashtirishga qaraganda kengroq tushunchaga ega. Rejalashtirish aniq harakat, ularning tartibini belgilash bilan bog‘liq, ya’ni, kelajakning o‘zgaruvchan tashkil etuvchisi bo‘lgan faoliyatdan iborat. Loyihalashda kelajakdagi narsa yoki jarayonlar tamoyillarga tayangan holda asoslanadi va tavsiflanadi, uni amalga oshirish usuli namoyon etiladi. Reja esa o‘ylab qo‘yilganlarni amalga oshirish yuzasidan harakatlar tizimini aks etadi.

Pedagogning kasbiy faoliyatida rejalashtirish keng o‘rin egallaydi. Rejalashtirish jarayonida pedagog oldida turgan faoliyatga diqqat bilan ish tutadi, mazmunini pedagogik jihatdan qayta ishlab chiqadi. Uni tashkil etishning samarali, mahsuldarroq shakllari va uslublarini izlaydi. U uning tarkibini aniqlaydi, uning ayrim qismlari orasidagi bog‘lanishni, ayrim qismlari orasidagi o‘zaro bog‘lanishlarni aniqlaydi, ularni birlashtirish va o‘zaro ta’sirining nisbatan mahsulli shakllari va usullarini izlaydi va h.k., ya’ni ishning mahsuldor, unumli tizimini shakllantiradi.

Rossiyalik olim I.P.Rachenko rejalashtirishni ko‘zdan kechirishning bir necha tomonini ajratadi. Ijtimoiy nuqtai nazardan pedagogik faoliyatni rejalashtirish – shaxs, jamoaning rivoj topishiga bir butun yondoshuvni loyihalashdan iborat. Rejalashtirishning iqtisodiy tomoni – faoliyat natijasi samaradorligini ta’minlashdir. Psixologik nuqtai nazardan reja miyada harakatlar qonuniy ketma-ketligini aniqlovchi shajaraviy tuzilgan jarayondir. Muallif fikricha reja tuzish – ishni loyihalashtirishdir.

Reja ishning aniq bir tizimidir, bunday tizimlarni loyihalash esa rejalashtirishning asosini tashkil etishi lozim. Bu holda tizimlarni loyihalash – o‘quv-tarbiya masalalarining jadal, unumli psixologik-pedagogik yechimini izlashdan iborat. I.P.Rachenko pedagogik faoliyatni rejalashtirishga quyidagilarni kiritadi:

a) pedagog oldida turgan asosiy maqsad nuqtai nazaridan pedagogik holatni baholash;

b) oldindan asosli tarzda ayta olish, ishning borishi va natijalarini oldindan ko‘rish, shunga bog‘liq tarzda uning maqsad va vazifalarini aniqlash;

v) zaruriy chora-tadbirlar, harakatlar ketma-ketligi dasturini ishlab chiqish, ularni amalga oshirish uchun eng unumli uslublar, usullar va jihozlarni tanlash;

g) ishni vaqt bo‘yicha hisob-kitobini qilish, uning boshlanishi va oxirini belgilash;
ye) hisobga olish va nazorat shakllari va uslublarini belgilash.

I.P.Rachenko keyingi ishlarida rejalashtirish jarayonini quyidagicha izohlaydi:

a) maqsad va vazifalarini shakllantirish;

b) ketma-ket harakatlar dasturini ishlab chiqish;

v) faoliyat jarayoni va natijalari jarayonini vaqtি hisobini nazorat qilish.

Ammo, pedagogik adabiyotda bu jarayonlarga nisbatan qarama-qarshi fikrlar ham mavjud. Masalan, V.I.Zagvyazinskiy istalgan kishi, shu jumladan, pedagogik faoliyatda quyidagi davrlarni ajratadi:

- erishilgan dastlabki holat, boshlang‘ich vaziyatlar tahlili;
- tashhislash yo‘nalishlarini aniqlash;
- bashorat qilish va oldindan aytish;
- maqsad va asosiy vazifalarni aniqlashni o‘z ichiga olgan maqsadga yo‘nalganlik;
- o‘ziga xususiy masalalar na ularni yechishning asosiy bosqichlarni o‘z ichiga olgan rejalashtirish.

Bunga qaraganda, loyihalash rejalashtirishdan keyin keladi va rejani aniqlashtirishdan iborat. Bizning nuqtai nazarmizda I.P.Rachenko fikrlariga nisbatan bu qarash aniqroqdir, chunki, shaxs o‘z faoliyatini rejalashtirish uchun kelajakdagi ta’lim jarayoni dasturi yoki loyihasi bo‘lishi kerak.

Rossiyalik olim P.Ye.Reshetnikov tomonidan tayyorlangan pedagogik faoliyatni rejalashtirish usullari qiziqarlidir:

- 1) dasturiy-maqsadli;
- 2) majmuaviy-tadbiri;
- 3) tizimli-texnologik.

Dasturiy-maqsadli rejalashtirishda faoliyatning yakuniy va oraliq maqsadlari loyihalanadi va tavsiflanadi, reja, yakuniy hujjat shakli sifatida ish dasturi xizmat qiladi. Majmuaviy-tadbiri rejalashtirishda quyidagilar loyihalashtiriladi:

- a) eng muhim masalalar, ularni yechish uchun yo‘naltiriladi;
- b) ishning majmua shakliga ega bo‘lgan ayrim yo‘nalishlari bo‘yicha tadbirlar;
- v) bajarish muddatlari;
- g) bajarilishi uchun mas’ullar;
- d) nazorat qilish shakllari va bajaruvchilar;
- ye) kurs mavzularini o‘rganish ketma-ketligi;
- j) darsning asosiy bosqichlari, uning jihozlanishi, o‘quvchilarga beriladigan vazifalar.

Reja shakli: tadbir, dars va boshqalarning aniq rejasi.

Tizimli-texnologik rejalashtirishda quyidagilar loyihalanadi:

- a) ta’lim muassasasining ta’lim faoliyati yoki rivojlanishi to‘g‘risidagi va tajriba-sinovlarning yetakchi g‘oyalari;
- b) o‘quv rejasi;
- v) talabalar tomonidan kasbiy tajribani o‘zlashtirishni ta’minlovchi o‘quv va kasbiy masalalarining ishlab chiqarilishi;
- g) o‘quv jarayonining tartibi;

- d) o‘quv fanlari bo‘yicha dasturlar;
- ye) har qaysi alohida o‘quv kursini o‘rganish texnologiyasi;
- j) har qaysi alohida kursni o‘tkazish texnologiyasi;
- z) ish unumi mezonlari va ko‘rsatkichlari tizimi va mutaxassis kasbiy-shaxsiy rivojlanishini tashhislash texnologiyasi;
- i) oraliq va yakuniy nazoratlar o‘tkazish texnologiyasi;
- k) moddiy, moliyaviy, kadrlar bilan ta’minalash yuzasidan olib boriladigan ishlar;
- l) pedagogik jamoani rivojlanish jarayonidagi ta’limiy masala-larni hal qilishga tayyorlash bo‘yicha ishlarning shakli; muassasaning ta’li-miy dasturlari.

Uchinchi tushuncha modellashtirish.

Modellashtirish – “bilish ob’ektlarini ularning modellarida tadqiq qilish uslubi; aniq mavjud predmetlar, voqealar va tuziladigan ob’ektlarning tavsifnomalarini aniqlash yoki yaxshilash, ularni yasash usullarini qulaylashtirish, boshqarish kabilar uchun yasash va o‘rganish”.

Model – tabiiy yoki ijtimoiy borliq muayyan ko‘rinishning, inson madaniyati, g‘oyaviy-nazariy ta’lim mahsulining, aslining o‘xshatmasi (chizmasi, tarkibi, belgilari tizimi). Bu o‘xshatma asl bo‘lib, uning xossalari va tuzilishi, uni o‘zgartirish yoki boshqarish haqidagi bilimlarni (ma’lumotni) saqlash va kengaytirish uchun xizmat qiladi. Model - bu aslni bilish va boshqarishdagi “vakili”, “o‘rinbosari”dir. Muayyan shartlarda nusxani tayyorlash va tadqiq qilish natijalari asl nusxaga o‘tkaziladi”. Model tushuntirish, oldindan aytish, topilmali vositasi sifatida, doimo bilishga oid rolni bajaradi.

Modelning loyihadan birinchi farqi – uni tuzish maqsadidir. Model narsa, hodisani o‘rganish, ma’lumot (axborot) olish, uning qirralarini o‘rganish uchun, shuningdek, uni o‘zgartirish va boshqarish uchun foydalilanadi. Loyiha esa narsani tuzish, borliqqa mujassamlashtirishda ishlatiladi va yuqorida ko‘rsatilganidek, bilishga oid vazifani bajaradi.

Modelning boshqa o‘ziga xos xususiyati, yuqorida keltirilgan ta’rifga ko‘ra, u aniq mavjud aslni «ifodalaydi», «almashtiradi», loyiha esa hali mavjud bo‘limgan narsalarni tavsiflaydi. Model – borliq qismining o‘xshatmasi; uni tuzishda muhim bo‘limgan holatlardan chetlaniladi, faqat bosh asosiy qismlar va tavsifnomalar qayd etiladi. Model – xayoliy tuzilma. Loyihada, aksincha, kelajakdagi narsa va jarayonlar to‘g‘risida, shartlar e’tiborga olingan holda, aniq tasavvur akslanadi.

Biz bergen modellashtirish tushunchasi ta’rifida hali mavjud bo‘limgan ob’ektlar ham bo‘lishi mumkin. Bunda loyihalash va modellashtirish tushunchalari o‘zaro kesishadilar. Lekin, ularni ajratish mumkin. Yasalayotgan narsa modeli bevosita narsaning o‘ziga mujassamlanmaydi, lekin jarayonning bu eng boshida sodir bo‘lishi mumkin. Modellash, shuningdek berilgan shartlarda maxsus uyushtirilgan ta’sir

natijasida ob'ektda vujudga kelishi mumkin bo'lgan holat haqida yangi ma'lumot olishga imkon beradi, ya'ni, bashoratlash vazifasini bajaradi. Modellash bashorat qilish uslubi sifatida ta'lim jarayonida o'rganiladigan narsaning axborotli modelini yasash bilan bog'langan bo'ladi. Bu mo'ljallangan chiziqlar deb ataladiganlar ko'rinishida yasalgan mantiqiy chizmalar (u qaysi tushunchalar va ta'riflardan qaysilari tomon harakat qilishni ko'rsatadi), mazmunning asosiy holatlarini yorituvchi turli ramzlar yoki mavzuni o'rganishning aniq rejasi bo'lishi mumkin.

Pedagog va talabalarning faoliyati, usullar bilan to'ldirilgan axborotli faoliyat modeliga, jarayonli modelga aylanadi. Pedagog talabalardagi va yangi ma'lumotni, mavjud va zarur bo'ladigan odat va ko'nikmalarni, boodobliklikning aniq va zaruriy darajasini o'zaro solishtiradi va faraziy tarzda talaba uchrashi mumkin bo'ladigan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Farazga asoslanib, u muammoning yechilishini, bo'lishi mumkin bo'lgan xatoliklarni, maqsadga muvofiq bo'lgan yoki bo'lмаган harakatlarni oldindan ko'radi, faoliyatning muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlovchi vositalarni tanlaydi, ya'ni, xayolan tajribalar o'tkazadi. Buning uchun xayoliy tajribaga yana bitta shart kiritilishi lozim - talabalarni faoliyatga undovchi shartlarning holati va kuchini, ularning qiziqishlarini, o'z-o'zlarini tarbiyalashga istaklari borligini nazarda tutish, zarur bo'lsa, intilishlarini rivojlantirish chorasini ko'rish lozim.

Pedagogning yuqorida tavsiflangan harakatlari, aynan fikran sinab ko'rishi, loyihalash faoliyatiga kiritilishi mumkin, ya'ni modellashtirish loyihalashning bir qismi bo'ladi. Didaktikada modellashtirishni bilish uchun pedagogning loyihalash faoliyatini aniqlash lozimdir.

Loyihalashning to'rtinchi bosqichi – tuzish-qurish.

Tuzish-qurish (konstruksiyalash) – “biror-bir qurilish, inshoot, qurilma qismlarining tarkibi va o'zaro joylashuvi, shunday tuzilishli qurilish, inshoot, mashinaning o'zi”

Tuzish-qurishda biror-bir ob'ektning tarkibi bosh tushuncha bo'lib, tuzuvchilik faoliyati loyihalash faoliyatidan farqli ravishda, xayoliy va amaliy (buyumli tuzuvchilik) faoliyat bo'lishi mumkin, xayoliy tuzuvchilik mazmuni bo'yicha loyihalashga yaqin va uning o'xhashi sifatida ko'plab ishlatiladi. Lekin, bizning fikrimizcha, tuzish loyihalashga nisbatan tor ma'nodagi tushuncha, chunki, u yaratilayotgan ob'ektning sirtqi tomonini akslantiradi, loyihalash esa ichki, o'zgaruvchan va boshqa tashkil etuvchilarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik qomusiy lug'atda tuzish-qurish ta'rifi quyidagicha keltirilgan: «Tuzish-qurish (konstruksiyalash) – loyihalar va hisoblashlarni bajarish yo'li bilan model, mashina, inshoot, texnologiyani yasash jarayonidir». Keltirilgan ta'rifga ko'ra tuzish-qurish ob'ektlari sifatida nafaqat qurilishlar, inshootlar, mashinalar, qurilmalar, balki, modellar va texnologiyalar xam namoyon bo'lishi mumkin. Bunda belgili, ramzli

mavhum emas, balki moddiy, narsali modellar ko‘zda tutiladi. Texnologiyalar haqida esa, «texnologiyalarni loyihalash» so‘z birikmasi o‘rinliroq, chunki texnologiya jarayon sifatida vaqtinchalik, o‘zgaruvchan tashkil etuvchiga ega, qurilmalar esa tuzish mahsuli tarzida faqat o‘zgarmas tavsifnomaga ega. Bundan tashqari, ko‘rsatilgan ta’rifda tuzish loyihalashni o‘z ichiga oladi. Ayrim mualliflar (masalan, Ya.Ditrix) tuzishni loyihalash natijasiga tayanadigan faoliyat tariqasida qaraydilar, va «loyihaviy - konstrukturlik jarayoni» atamasini ishlatadi. V.S.Bezrukova pedagogik tuzishni bir vaqtida loyihalashning bosqichi sifatida va tuzilgan loyihani keyingi detallashtirilishini batafsil aniqlash sifatida qaraydi. Bizning nuqtai nazarimizdan loyihalash tuzishni o‘z ichiga oladi, uni o‘quv faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan vositalarning yaratilishi sifatida qarash mumkin.

Ma’nosi bo‘yicha loyihalashga yaqin bo‘lgan modellash, bashorat qilish, rejalash, o‘quv va o‘qitish faoliyatini tuzish tushunchalarining tahlili, ularning umumiyligi va farqini aniqlash ta’lim jarayonini loyihalash ma’nosи haqida bir qator xulosalar chiqarishga imkon beradi.

Pedagogik jarayonni loyihalash – pedagogning tabiiy va ijtimoiy qonuniyatlarni nazarda tutilgan holda ma’lum bir vaqt birligi ichida talabalarni maqsadga muvofiq holda rivojlantirishning kelajakdagи jarayoni va natijasi o‘rin oladigan kasbiy faoliyatining bir ko‘rinishidir.

Bo‘lajak ta’lim jarayonining loyihasi loyihalashning mahsulidan iborat. Loyihalash modellashdan tuzish maqsadi bo‘yicha farq qiladi. Loyiha loyihalanayotgan ob’ektni borliqqa mujassamlashtirishdan iborat; model - ob’ektni tadqiq qilish uchun, dastlab model, so‘ngra uning asosida loyiha ishlab chiqilsa, modellash loyihalashning tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

Loyihalash bashorat qilish tushunchasi bilan uzviy bog‘langan. Ularning umumiyligi shundaki, loyiha va bashorat kelajakdagи didaktik hodisalar haqida tushuncha beradi. Lekin, loyihadan farqli ravishda bashoratlar ehtimoliy mazmunga ega va u yoki bu didaktik jarayonning rivojlanish natijalarini oldindan ko‘ra oladi. Loyiha esa bu jarayonlarni qaytadan tuzadi. Loyihalash o‘z tarkibiga bashorat qilish qismini kiritishi mumkin. Agar talabaning o‘quv-bilish faoliyat rejasi haqida gap borsa, va shu jarayon davom ettirilsa, rejalashtirish loyihani amalga oshirishi tarkibiga kiradi.

Tuzish-qurish ham ta’lim jarayonini loyihalash tarkibiga kiradi. Fikrimizcha, u texnologik jarayonni amalga oshirish uchun moddiy vositalarni tuzishdan iborat. Loyihalash u yoki bu darajada kelajakdagи ta’lim jarayonini modellashtirish, bashorat qilish, rejalashtirish, tuzish-qurish qismlarini o‘z ichiga oladi. Ta’lim jarayonini loyihalash – murakkab faoliyat bo‘lib, pedagogdan amaliy, didaktik, uslubiy metodologik, buyumli va boshqa bilimlarning tizimini talab qiladi, chunki, u xayoliy darajada haqiqiy ta’lim jarayonini yoritib beradi.

Nazorat savollari

1. Pedagogning kasbiy professionalligi?
2. O‘qituvchining professionallik darajasi qanday omillar bilan bevosita bog‘liq
3. Pedagogik jarayonni loyihalash qanday amalga oshiriladi.
4. Pedagogik texnikaning asosiy tarkibiy kismlari nimalardan iborat.
5. Kasbiy-pedagogik tayyorgarlik jarayonida tayanch (soft skills), maxsus (hard skills) kompetensiyalar mazmuni bayon qiling.
6. Modulli-kompetentli, integrativ, innovatsion-kreativ yondashuvlarga misollar keltiring.
7. Pedagogning kreativ potensialining tarkibiy asoslarigi ochiqlang.

Foydalilanigan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi “O‘qituvchi va murabbiylar-yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).
9. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-sonli qarori.
11. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obЩestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.
12. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
13. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoj obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
14. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – T.: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
15. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliv ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.
16. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
17. Makarova.N.S. Didaktika vlysshey shkoly. monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.
18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
20. Obrazovanie v sifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.
21. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse vuza: monografiya. – Voskresensk, 2012. – 218 s.

Internet saytlar

22. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi
23. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
24. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
25. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portalı ZiyoNET
26. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi

27. <http://tmetod.uz> – TDPU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi

2-MAVZU: O‘QUV MASHG‘ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH METODIKASI.

Reja:

1. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.
2. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish.
3. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari.

Tayanch tushunchalar: *ta’limning tashkiliy shakli, sinf-dars tizimi, loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat, mustaqil ta’lim, interfaol metodlar.*

2.1. O‘quv mashg‘ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta’lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.

Ta’lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari (o‘qituvchi va ta’lim oluvchilar)ning ma’lum belgilangan tartibda amalga oshiriladigan hamkorlikdagi faoliyatlarining tashqi ko‘rinishi ta’limning tashkiliy shaklini anglatadi.

Kishilik jamiyatining tarixiy taraqqiyot davrida ta’limning tashkiliy shakllari turlicha bo‘lgan.

Qadimgi paytlarda yakka tartibda o‘qitish keng tarqalgan bo‘lib, u ma’lum ijobiy jihatlarga ega bo‘lganligi bois hozirgi vaqtgacha saqlanib qolgan. O‘rta asrga kelib, kasbiy ta’lim-tarbiya kichik guruhrar shaklida o‘tkazila boshlagan, chunki bu davrda sanoat ishlab chiqarishi yo‘lga qo‘yilayotgan davr edi.

XVI asrning oxiri va XVII asrning boshlarida chex pedagogi Ya.A. Komenskiy sinf-dars tizimi maqbulligini nazariy jihatdan isbotlab berdi. Shu paytgacha bu tizimdan keng ko‘lamda foydalanimilib kelinmoqda, lekin unga muqobil tizim yaratilganicha yo‘q.

Amaliyotda 80 undan ortiq foiz miqdordagi ta’lim-tarbiya ishlari, yani mashg‘ulotlar sinf-dars tarzida amalga oshirilganligi sababli dars – ta’lim-tarbiya ishining asosiy shakli deb yuritiladi.

Ijtimoiy talablar, ta’limning maqsad va vazifalari, ta’lim oluvchilarning talab hamda ehtiyojlari, ta’lim-tarbiya qonuniyatları, prinsiplari kabilarga ko‘ra darslarga quyidagi talablar qo‘yiladi:

- fan-texnika va ishlab chiqarish texnologiyalarining so‘nggi yutuqlari, ilg‘or, pedagogik tajribalardan imkon qadar foydalanish, ta’lim-tarbiya qonuniyatlariga asoslanib dars tuzilmasini maqbullashtirish;
- darsda barcha didaktik prinsiplarning maqbul nisbati va uyg‘unligini ta’minlash;
- ta’lim oluvchilarning qiziqishi, ehtiyojlari, moyillagini hisobga olgan holda faol,

mahsulli o‘quv-bilish faoliyatiga shart-sharoit yaratish;

- o‘quv materialining mukammal o‘zlashtirilishi uchun fanlararo aloqadorlikka amal qilish;
- ta’lim oluvchilar tomonidan ilgari o‘zlashtirilgan bilimlar va ularning hayotiy tajribalariga tayangan holda ish ko‘rish;
- ta’lim oluvchilarining barcha ijobiy jihatlarini rag‘batlantirish, o‘quv-bilish faoliyatini faollashtirish yo‘li bilan ta’lim oluvchilar shaxsini rivojlantirishga erishish;
- darsning barcha bosqichlarida mantiqiy va emotsiyal his-tuyg‘ularga asoslanish;
- didaktik materiallar va vositalardan samarali foydalanish;
- nazariy materialni amaliyot bilan uzviy bog‘lab o‘rganish;
- zaruriy bilim, xatti-harakat usullari, oqilona fikrlash va amaliy faoliyat ko‘rsatish usullarini tarkib topdirish;
- ta’lim oluvchilarda muntazam va uzlusiz ravishda o‘qib-o‘rganish o‘zining bilim va kasbiy mahoratini oshira borish ehtiyojini shakllantirish;
- darslarni mukammal rejalshtirish natijalarini oldindan bashorat qilish, tashhislash va shu kabilar.

Pedagogikada zamonaviy darslar bir-biri bilan uzviy bog‘liq: ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni uyg‘unlashtirish bu sohada aniq maqsadlarni belgilab olishni talab etadi.

Darslarga qo‘yiladigan didaktik talablar qo‘yidagicha.



- 1** хар бир дарснинг вазифаларини аниқ белгилаб олиш.
- 2** ижтимоий талаб ва таълим олувчиларнинг эҳтиёжлари, шарт-шароитини хисобга олган ҳолда таълим мазмунини мақбуллаштириш.
- 3** самарали педагогик технологиялар асосида таълим олувчиларнинг ўқув-билиш фаолиятини ташкил этиш.
- 4** таълимнинг турли шакл, метод ва воситаларининг оқилона уйғунлигини таъминлаш.
- 5** дарс тузилмасини ижодий ёндошган ҳолда шакллантириш.
- 6** таълим олувчиларнинг турли ўқув-билиш фаолиятларини уйғунлаштириш.
- 7** таълим жараёни иштирокчилари орасида тезкор тескари алоқани таъминлаш, таъсирchan бошкарув механизмини ишлатиш.
- 8** дарсларни илмий-услубий асосда ташкил этиш.




Rivojlantiruvchi talablar:



Bundan tashqari ta’lim metodikasida tashkiliy, psixologik, boshqaruvchilik, maqbul muloqot o‘rnatish, hamkorlik qilish, sanitariya-gigienik, axloqiy kabi talablar ham hisobga olinadi.

O‘qituvchi o‘zi o‘qitadigan o‘quv predmeti bo‘yicha mashg‘ulotlarni muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun ularga puxta tayyorgarlik ko‘rishi muhim ahamiyatga ega.

O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari³



Ma'lumki, zamonaviy ta'lim texnologiyalarini joriy etish ma'lum bir muammolarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Jumladan, hozirgi kunda ta'lim tizimida mavjud bo'lgan didaktik tizimlar, ko'pchilik holatda dars jarayonida ma'ruza qilish, namoyish etish, eshitish va yozib olish kabi o'qitish paradigmasiga asoslangan. Ushbu didaktik tizimda asosiy vazifani tyutor bajaradi, ta'lim oluvchi esa ko'proq passiv bilim oluvchi hisoblanadi. Bunday ma'ruza shaklida o'qitishda ta'lim oluvchilar ko'pincha tyutor tomonidan dars jarayonida birinchi marta aytilgan ma'lumotlarini tushunishga harakat qiladi va ular bu ma'lumotlarning mazmun-mohiyati xaqida chuqurroq o'ylashga ulgurmeydi va tezkorlik bilan tyutorning so'zlarini yozib olish bilan band bo'ladi. Xalqaro mutaxassislardan biri K.D.Muldrov fikricha, tyutor ma'ruza shaklidagi darsda o'qitishning differensial yondashuvini to'liq amalga oshira olmasligi, har bir ta'lim oluvchining individual xususiyatlarini hisobga ololmasligi, o'quv materiallarni o'zlashtirishining tegishli sur'atini ta'minlay olmasligi mumkin. Bu holat hozirgi kunda butun dunyoda muammo sifatida qaralmoqda va mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta'lim oluvchilarning mustaqil ta'lim olishini tashkil etishga ko'proq e'tibor qaratilmoqda.

Yuqorida ta'kidlangan muammolarning yechimini topish va ilgari surilgan g'oyalarni amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy o'qitish shakllaridan biri — **аралаш о'qitish (Blended learning)** hisoblanadi.

Aralash o'qitish — zamonaviy ta'lim texnologiyasi bo'lib, uning asosi “sinf-

³ Ушбу ўкув материали А.Е.Ибраимов томонидан яратилган “Масоғавий ўқитишинг дидактик тизими” номли қўлланмаси асосида тайёрланган. (Қаранг. А.Е.Ибраимов. Масоғавий ўқитишинг дидактик тизими. – Тошкент: “Lesson press”, 2020, 112 бет.)

dars tizimi” bilan elektron ta’limning birlashuvi konsepsiyasidan iborat. Bu elektron ta’lim, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va zamonaviy o‘quv vositalari taqdim qiladigan yangi didaktik imkoniyatlarga asoslanadi. Aralash o‘qitishning keng tarqalgan usullaridan biri — bu “**Flipped Class**” pedagogik texnologiyasi asosida o‘qitish hisoblanadi.

“Flipped Class” inglizcha so‘z bo‘lib, ruschada — “Perevernutyy klass”, o‘zbekchada “Teskari dars, sinf”, “O‘rin almashtirilgan dars, sinf”, “Ilgarilama dars, sinf”, “Oldindan tayyorlanish darsi, sinfi” ma’no- lariga to‘g‘ri keladi. Bularning orasidan ushbu pedagogik texnologiyaning xaqiqiy mazmun-mohiyatiga eng yaqin bo‘lgan nom sifatida o‘zbek tilida “Oldindan tayyorlanish darsi, sinfi” nomini tanlash mumkin.

“Flipped Class” texnologiyasida o‘quv jarayonining asosiy qismlari bo‘lgan dars bilan uyga vazifaning o‘rni almashtirilib, avval uyga vazifani bajarish jarayonida video, audio va boshqa interfaol materiallar o‘rganiladi va bo‘lajak darsga tayyorgarlik ko‘riladi, keyin darsda mavzu mazmunini amalda qo‘llash masalalari ko‘riladi.

Ta’lim oluvchi darsgacha bo‘lgan vaqtida istalgan joy va vaqtida o‘ziga qulay holda o‘rnashib o‘tirib, tyutor tomonidan taqdim etilgan video, audio va boshqa interfaol materiallarni o‘rganadi. Barcha faktlar va nomlar ixcham videoga bir necha minutga joylangan bo‘ladi. Bunga auditoriyada mavzuni tushuntirishga ketadigan vaqtdan kamroq vaqt ketadi. Chunki darsda bo‘ladigan turli tashkiliy ishlarga vaqt sarflanmaydi. Darsdan oldin mustaqil o‘zlashtirish darsdagi mavzuni yangidan tushuntirishga ketadigan vaqtini tejaydi va ushbu bo‘shab qolgan vaqtdan mavzuga tegishli muammolarni hal qilishga, bilimlar va ko‘nikmalarini amalda qullashga va ta’lim oluvchilar bilan yangi o‘quv mahsulotlar yaratishga yo‘naltiriladi. Ushbu masalada soha mutaxassislaridan biri bo‘lgan M.Simonovaning fikricha, ushbu texnologiya “darsdan tashqarida mustaqil ishslash, darsda vaqtini tejashta va to‘g‘ridan-to‘g‘ri darsda o‘quv material mazmunini tushunishni chuqurlashtirishga yordam beradi”.

“Flipped Class” atamasi nisbatan yaqinda qo‘llanila boshlanganiga qaramay, uning ba’zi tamoyillari uzoq vaqtdan beri tyutorlar tomonidan qo‘llanilib kelingan. Jumladan, “Flipped Class” texnologiyasidan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni **XX asrning 90-yillari boshida** AQShning Garvard universiteti professori Erik Mazur o‘tkazgan. U ta’lim oluvchilarga yangi tushunchalar va atamalar bilan tanishish orqali darsga tayyorlangan holda kelishlari uchun ma’ruza materiallari va maqolalar bergen. Dars boshida esa Erik Mazur kichik so‘rov o‘tkazgan, uning natijalari esa ta’lim oluvchilarning o‘quv materiallarni qanchalik o‘zlashtirganligi bo‘yicha tyutorga signal bo‘lgan. Shu asosida dars jarayonida qaysi

masalalarga alohida e'tibor berish kerakligini bilib olgan va keyin o'quv materiallarni chuqur o'rganish va muammolarni hal qilish kichik guruhlarda amalga oshirilgan. Bu usulni qo'llash asosida o'tkazilgan nazorat ishlari natijalari an'anaviy o'quv uslubiga nisbatan yuqori natija kayd etgan. Ta'limning ushbu shakli AQShda 2004 yildan boshlab rivojlantirilgan (Woodland Park High School, Colorado).

"Flipped Class" nomi bilan birinchi bo'lib, 2007 yilda AQShda ikki nafar tyutor — Jonatan Bergman va Aaron Sems tomonidan amaliyotda qo'llanila boshlangan. Ular o'z ta'lim oluvchilariga bosma materiallar emas, balki uyda yangi o'quv materiallarini o'rganish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan video darslarni tarqatishgan.

Bergman va Sems ishlagan mакtab qishloqda bo'lganligisababli, ta'lim oluvchilar darslarni ko'proq qoldirib yuboradigan bo'lishgan. Dars qoldirgan ta'lim oluvchilarining vaqtini tejash va ular bilan qo'shimcha darslar o'tkazmaslik uchun darslarni videoga yozib olish g'oyasi paydo bo'lgan. Ta'lim oluvchilar dars materiallarini mustaqil o'rganish uchun ular taklif qilgan yondashuvni katta qiziqish bilan qabul qilishgan.

Shuningdek, 2011 yilda tadqiqotchi Endi Shell AQShda Michigan shtatidagi "Clintondale High School" mакtabida mazkur masala bo'yicha keng tadqiqot o'tkazgan. Bunda 45 daqiqalik ma'ruzaning hammasini konspektlashdan ko'ra davomiyligi 3-6 daqiqadan ortmaydigan videoroliklardan foydalanish yaxshi natija berishi ma'lum bo'lgan.

"Flipped Class" pedagogik texnologiyasi zamonaviy kompyuter texnologiyalari va masofaviy o'qitish hamda Internet tarmog'i imkoniyatlari asosida yanada rivojlangan. Bunday format dunyodagi ta'lim oluvchilar va tyutorlar uchun ma'qul bo'lgan va ular o'z videoma'ruzalarini yozib, ta'lim oluvchilari o'rganishlari uchun lokal va global tarmoqlarga joylashtira boshlagan.

Buyuk Britaniyaning Ochiq universiteti mutaxassislari bu soha dunyodagi ta'lim tizimining rivojlanishini tubdan o'zgartirishi mumkin deb hisoblaydilar. Shuningdek, xalqaro ekspertlar hamjamiyati yaqin kelajakda (5-7 yil) ta'lim jarayoni rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadigan asosiy tendensiyalarni aniqladi (The NMC Horizon Report: 2014 Higher Education Edition, New Media Consortium, "Educause"). Bular o'quv jarayonida va darsdan tashqari mashg'ulotlarda elektron raqamli qurilmalardan foydalanish va har qanday mobil qurilmadan foydalangan holda turli resurslar bilan ishslash (Bring Your Own Device) hamda "Flipped Class" texnologiyasi, turli xil uyinlar va geymifikatsiya shaklida o'qitish (Game, Gamification) kabi texnologiyalar hisoblanishi ta'kidlandi.

Hozirgi kunda "Flipped Class" texnologiyasini muvaffaqiyatli qo'llash amaliyoti Pensilvaniya shtati Universitetida (AQSh) 1500 dan ortiq ta'lim

oluvchilar ishtirokida olib borilmoqda.

“Flipped Class” texnologiyasini amalda qo‘llashda quyidagi zamonaviy **ta’lim vositalaridan** foydalaniлади.

Podkast (Podcast) — bu ovozli fayl (audio ma’ruza) hisoblanadi. Ta’lim oluvchilar podkastni o‘zlarining statsionar yoki mobil qurilmalari asosida yoki ma’ruzalarini onlayn rejimida tinglashlari mumkin.

Vodkast (Vodcast — bu “video-on-demand”, ya’ni so‘rov bo‘yicha video ma’nosini bildiradi) ham podkastga o‘xhash bo‘lib, farqi faqat videofayllarga egaligidan iborat.

Pre-vodkasting (Pre-Vodcasting) — bu ta’limiy metod bo‘lib, unda pedagog tomonidan ta’lim oluvchilar kelgusi o‘rganiladigan mashg‘ulotgacha avvaldan mavzu to‘g‘risida tasavvur olishlari uchun o‘z ma’ruzasi bilan birga vodkast yaratiladi.

“Flipped Class”ning asosiy vositasi bu ta’lim oluvchi darsdan tashqari vaqtida mustaqil ravishda o‘rganiladigan video, audio va boshqa interfaol materiallar hisoblanadi. Video ma’ruzalar ko‘pincha **asosiy komponent** sifatida ko‘riladi.

Mavjud ayrim manbalarda “Flipped Class”ning yagona modeli hali mavjud emasligi, bu texnologiya ta’lim oluvchilarning oldindan yozilgan ma’ruzalarini o‘qishi, ko‘rishi va tinglashiga asoslanganligi, keyinchalik bevosita ta’lim oluvchilar o‘rtasida muhokama qilinishi asosida amalga oshirilishi ta’kidlangan bo‘lsa, ayrim manbalarda ushbu texnologiya asosida o‘qitishning bir nechta **modellari** keltirilgan.

Jumladan, “Flipped Class”ning klassik modeli ta’lim oluvchini bo‘lajak darsning nazariy materiallar bilan oldindan tanishtirishni o‘z ichiga oladi. Bunda o‘quv materiallar matn, darsliklarning paragrafi, slaydlar, video va audio materiallar shaklida beriladi. Auditoriyada esa tyutor avvaldan o‘rganilgan materialni muhokama qilish, murakkab fikrlarni tushuntirish, muammoli savollarga javob berish va interfaol usullardan foydalangan holda dars o‘tishdan iborat bo‘ladi.

Loyiha – aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli.

Loyiha dastur, model, texnologik xarita va b. ko‘rinishda namoyon bo‘ladi. Loyihaning asosini ilmiy yoki ijodiy xarakterga ega g‘oya tashkil etadi.

Loyihalash – boshlang‘ich ma’lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejallashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat.

Loyihalash “**g‘oya – maqsad – kutiladigan natija – taxmin qilish – bashoratlash – rejallashtirish**” tizimiga asoslanadi. Loyihalash turli vositalar, ya’ni moddiy buyum, qurollar, m: kompyuter texnologiyasi, vatmon yoki oddiy ish qog‘oz, chizg‘ich, qalam,

marker, nusxa ko‘chirish apparati (printer) va b. yordamida amalga oshiriladi

Loyihani yaratish uchun pedagog loyihani yaratish, jarayonni bosqichma-bosqich yoritish, maqsadni aniq belgilash, maqsadga mos vazifalarni aniqlash, o‘quv materiali mazmunini shakllantirish, savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, jarayon yoki tadbirning metodik tuzilishini asoslash, talaba bilim darajasini tashxislash va uning tarbiyalanganlik darajasini baholash kabi ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lishi zarur.

Ta’lim jarayonini loyihalash – alohida olingan ta’lim jarayonini samarali tashkil etish uchun barcha omillarni inobatga olgan holda uning loyihasi (sxemasi)ni ishlab chiqish.

Ta’lim jarayonini loyihalash qonuniyatları:

1) ta’lim jarayonini loyihalash samaradorligi barcha tarkibiy qismlar (texnologik jarayon, texnologik jarayonni boshqarish, vosita, axborot, ijtimoiy-iqtisoiy ta’milot)ning loyihsada maqsadga muvofiq yoritilishi bilan ta’minlanadi;

2) ta’limning texnologik vositalari talabalarning individual xususiyatlariga bog‘liq holda tanlanadi;

3) loyihalash strategiyalari pedagogning individual uslubiga muvofiq tanlanadi;

4) loyihalash sifati teskari aloqa (pedagog va o‘quvchi o‘rtasidagi) ko‘lami, loyihalash mazmuni hamda barcha omillar samaradorligiga bog‘liq.

Pedagogik jarayonni loyihalash: **loyiha** – **mazmun** – **faoliyat** uchligi asosida tashkil etiluvchi pedagogik faoliyatning umumiy mohiyatini yaxlit ifodalashga xizmat qiluvchi loyihani yaratishdir.

Ta’lim jarayonini loyihalash quyidagi bosqichlarda kechadi

АСОСИЙ БОСҚИЧЛАР

1-босқич: лойиҳани яратиш

2-босқич: ўкувчилар фаолиятини ташхислаш

3-босқич: педагогик жараённи ташкил этиш

4-босқич: педагогик жараённинг самарали кечишини таъминлаш

5-босқич: ўкувчилар фаолиятини назорат қилиш

Pedagogik jarayonni loyihalashda bajariladigan **asosiy vazifalar**:

- 1) pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;
- 2) natijalarni oldindin ko‘ra bilish;
- 3) rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihasini yaratish.

Ta’lim jarayonni loyihalashda vazifalarning belgilanishi



Virtual laboratoriylar. Virtual laboratoriya bu eksperimentlarni haqiqiy o‘rnatish bilan bevosita aloqada bo‘lmasdan yoki uning to‘liq yo‘qligida amalga oshirishga imkon beradigan dasturiy va apparat kompleksidir.

Virtual laboratoriylar deganda ikki turdagи apparat va dasturiy tizim tushuniladi:

- 1) masofaviy laboratoriylar - masofadan kirish imkoniyati bo‘lgan laboratoriya qurilmalari majmui;
- 2) virtual laboratoriylar - laboratoriya tajribalarini taqlid qilishga imkon beradigan dastur.

Buning uchun foydalanish mumkin:

- 1) tajriba o‘tkazish texnikasi bilan tanishish;
- 2) ishлаshingiz kerak bo‘lgan jihozlar bilan tanishish;
- 3) kuzatuv, hisobot berish ko‘nikmalarini egallash.

Bunday komplekslar maksimal aniqlik, eksperiment o‘tkazish uchun haqiqiy asbob-uskunalar modeliga mos kelish aniqligini ta’minlaydi. Bu ishni sezilarli darajada osonlashtiradi, vaqtini tejaydi va o‘rganilgan uskunani tan olish samarasini yaratadi.

Virtual laboratoriylarning afzalliliklari:

- 1) interaktivlik;
- 2) ma’lum bir laboratoriyanidan mustaqillik (kompyuter mavjud bo‘lgan joylarda o‘tkazish qobiliyati);
- 3) ta’lim muassasasida ko‘paytirib bo‘lmaydigan yoki voqelikda kuzatib bo‘lmaydigan ob’ektlar, jarayonlar, hodisalarni modellashtirish qobiliyati;

4) Internetdan foydalangan holda masofadan turib vazifalarni bajarish qobiliyati.

Virtual ishlardan foydalanishning kamchiliklari:

1) haqiqiy izlanishning mumkin emasligi;

2) mavzularning ko‘rinmasligi;

3) maxsus uskunalar bilan ishslashda amaliy ko‘nikmalarning etishmasligi.

STAR (akademiklar va tadqiqotchilar uchun dasturiy vositalar) - Massachusetts texnologiya instituti (MIT) tadqiqot va o‘qitish uchun virtual laboratoriyalarni rivojlantirish dasturi. Dasturning faoliyati umumiy biologiya, biokimyo, genetika, gidrologiya, taqsimlangan hisoblash sohasidagi o‘quv va ilmiy-amaliy dasturlarni ishlab chiqishdan iborat. Ko‘pgina dasturlar java yoki html-da amalga oshiriladi. StarBiochem, StarGenetics, StarORF, StarMolSim, StarBiogene, StarHydro, StarCluster kabi virtual laboratoriylar.

Debatlar-ikki qarama-qarshi, o‘zaro musobaqalashayotgan komanda (guruh) ishtirokchilarning oldindan tayyorlangan chiqishlariga asoslangan rasmiy muhokama.

2.2. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish.

Tanqidiy fikrlash haqidagi manbalarning ildizi qadim zamonlarga borib taqaladi. Yaqin va O‘rta Sharqda yashab ijod etgan o‘rta asr mutafakkirlari tabiiy-ilmiy asarlarida ilmning turli tomonlari, uning prinsiplari, tuzilishi, me’zonlari, ilmning inson aqliy rivoji va tanqidiy fikrashi bilan bog‘liqligiga jiddiy qiziqish borligini kuzatamiz.

Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, ularning safdoshlari va izdoshlari gnoseologik qarashlarining xarakterli xususiyati shundan iboratki, inson ongida predmet timsoli (obrazi)ni mavhumlashtirish jarayoni ular e’tiborini doimo jalb etgan, buning natijasida mazkur predmet mohiyati va o‘ziga xosligi tushunchasi ishlab chiqilgan va shakllangan.

Fikrlash nazariyasi kurtagi fan paydo bo‘lishi bilan yuzaga keldi va uzluksiz rivojlanmoqda. Xorazmiy bu nazariyaning rivojlanishiga muhim hissa qo‘shdi. *Forobiy fanlarga bilimlarni o‘zlashtirish va to‘plashning zarur vositasi sifatida muhim ahamiyat berdi, ularni egallahni esa savodxonlik ko‘rsatkichi deb hisobladi.*

Uning aytishicha, hissiyot a’zolari, yurak va miya inson tug‘ilgandan ato etilgan, boshqalar bilim, turli xil aqliy va axloqiy xususiyatlar: xarakter belgilari, ta’lim olish va boshqalar inson hayotiy tanqidiy fikrashi jarayonida egallanadi. U inson xarakterining turli xususiyatlari va axloqiy fazilatlari: dadillik, mardlik, do‘stlik, saxiylik, zukkolik, haqqoniylik va hokazolarni belgilar ekan, ular shaxsni tarbiyalash va *o‘z-o‘zini tarbiyalash natiasi deb hisoblaydi*. Mutafakkirning fikricha, aqliy va xulqiy sifatlar tarbiyasi ikki xil usullar (metodlar) bilan: shaxsni kamol toptirishga yo‘naltirilgan ixtiyoriy harakatlar va kuch bilan majbur qilish jarayonida amalga oshirilishi mumkin.

Olimning fikricha inson ma'naviyatining oliy pog'onasi ruh, aql va tafakkur bo'lib, ular inson tanqidiy fikrlashiga xos bo'lgan o'ziga xos shakllarda namoyon bo'ladi.

Forobiy tanqidiy fikrlashini tashkil etish masalalari bo'yicha bir qator muhim tavsiyalarni ishlab chiqdi. Yaxshi nazoratchi bo'lish uchun, deydi u, uch narsaga rioya qilish zarur:



Beruniyning ilmiy me'rosida u ishlab chiqqan tabiatni o'rganish va uning ilmiy metodi katta o'rinni egallaydi. Beruniy ilmiy metodining xarakterli xususiyatlari va asosi olimning ob'ektivligi va oqilona yondashuvi, kuzatish, tajribalar, og'zaki va yozma yodgorliklarni o'rganish dalillarga tanqidiy yondashuv, ularni aqliy xulosalar shaklida mantiqiy umumlashtirish, haqiqatni aniqlash maqsadida qiyoslashdan iboratdir.

Ibn Sino (X-XI asrlar) tanqidiy fikrlashining turli xillarining keng manzarasini ochib berdi. Ularni ruhning xilma-xil kuchlari deb tasvirladi va bu kuchlarning anchagina qismini ilohiy ibtido hukmi ta'siridan ajratib oldi. U qadimgi (antik) an'anaga muvofiq ruhni uch ko'rinish: nabotot, hayvonot va aqlga ajratadi.

Tanqidiy fikrlashini shakllantirishning muhim shartiga talabalarni darsda tanqidiy fikrlashi turlarini almashtirish zaruriyatini qo'shish kerakligini qayd etiladi. Talaba shaxsini rivojlantirishda, shuningdek, ikki yo'nalishni ajratib ko'rsatish mumkin: *fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish* hamda shaxsning muayyan sifatlarini shakllantirish. Rivojlantirish, fikrlashni tanqidiy fikrlashining bo'g'ini deb hisoblangani uchun bu vositalar guruhini quyida batafsil ko'rib o'tamiz.

Tanqidiy fikrashi mazmuni uch tashqi omillar: ob'ekti, maqsadi, didaktik asoslar rivojlanishining qonuniyatlari orqali bog'lanadi.

Tanqidiy fikrlashning tashqi tomoni deganda biz ancha sodda jarayonlarini (*qabul qilish, diqqat-e'tibor va boshqalar*) rag'batlantirish va talabaning umumiy ish qobiliyatini saqlashni tushunamiz. Buning uchun quyidagi usullar xizmat qiladi:

- ♦ turli metodlar, turlar va o'quv ishlari usullarini navbatlashish yo'li bilan turli asab markazlari ishlarini almashtirishni ta'minlash;
- ♦ o'quv jarayonida so'z va ko'rgazmalilik, aniq va mavhumiylikning to'g'ri o'zaro munosabati;

- ◆ darsda jismoniy va musiqiy dam olish daqiqalari;
- ◆ ijobiy hissiyotlarni qo'llab-quvvatlash;
- ◆ didaktik usul sifatida o'yin va musobaqalarni qo'llash, tanqidiy fikrlashining ichki tomoni, bu avvalambor talabalar fikrlashini faollashtirish, boshlang'ich guruhlarda esa ular tasavvuri va ijodkorligini rag'batlantirish hamdir.

Tanqidiy fikrlashini shakllantirishning ichki tomoni maqsadlarida foydalaniladigan asosiy usullar quyidagilardir:

- ❖ talabalarning mustaqil ishi;
- ❖ o'z-o'zini va o'zaro nazorat etish elementlari;
- ❖ bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilari ta'limiga muammoli yondashuv;
- ❖ ta'limning moslashuv tizimi elementlari va boshqalar.

Tashqi va ichki shakllantirish usullari tanqidiy fikrlashning barcha bosqichlarini qamrab oladi: jonli mushohada yuritish bosqichida, tasavvurni qabul qilish va yuzaga kelishida; mavhum fikrlash bosqichida, o'quv materialini idrok etish va tizimlashtirishda, xulosa va umumlashmalarni shakllantirishda, esga olish bosqichida, o'zlashtirilgan materialni qo'llashda.

Hatto yaxshi o'ylab topilgan tizim va tanqidiy fikrlash usullaridan oqilona foydalanilganda ham talaba o'qituvchi rejalashtirgan ta'sirlarni har doim ham mos ravishda qabul qilavermaydi. Shu bois tanqidiy fikrlashni shakllantiruvchi imkoniyat va vositalar bilan bir qatorda talabalar ichki mexanizmini ham o'rganish zarur.

Tanqidiy fikrlashning pedagogik- psixologik asoslari.

Talabalar tanqidiy fikrlashini o'rganishda zamonaviy didaktika va ta'lim psixologiyasi yutuqlaridan foydalanadi. Tanqidiy fikrlashida talabalarning individual va tipik xususiyatlarini ko'rib chiqadi.

O'zlashtirish jarayonida tahliliy-sintetik faoliyat, shuningdek qiyoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish va aniqlashtirish kabi fikriy operatsiyalar muhim rol o'ynaydi.

Tahlil - bu, predmetni qismlarga fikran bo'lishdir.

Sintez - alohida elementlar yoki qismlarni bir butunga fikran birlashtirishdir.

Jumladan, bitta o'nlik va ikkita birlikdan iborat son necha deb ataladi degan o'qituvchining savoliga javob berib, ta'lim oluvchilar sintezdan foydalanadi (O'n va ikkita bir 12 sonini tashkil etadi); 25 sonida nechta o'nliklar va birliklar bor degan savolga javob berib, o'quvchilar sonlar tahlilini amalga oshiradi.

Tanqidiy fikrlashning faol metodlarini ishlab chiqishda quyidagi asoslardan kelib chiqadilar: *Tanqidiy fikrlash nima?*

Fikrlash – o‘qish, yozish, so‘zlash va eshitishga o‘xhash jarayon. U shunday faol, muvofiqlashtiruvchi jarayonki, uning tarkibida biror haqiqat yotadi.

Fikrlash kontekstdan tashqarida hosil qilinadigan ko‘nikma emas. Tanqidiy fikrlash ta’limiy dastur yoki kundalik hayotning umumiy kontekstidan yiroqlashgan sharoitda o‘rganilishi lozim bo‘lgan hodisa ham emas.

Braun (1989) ta’kidlaydiki, vazifa va real hayot maqsadlariga bog‘lanmagan o‘quv ko‘nikmalari ta’lim oluvchilarga ob’ektiv testlarni yaxshi topshirish imkoniyatini berishi mumkin, lekin ular bu ko‘nikmalarni yangi vaziyatlarda qo‘llay olmaydilar.

Samarali va muttasil o‘rganish asosida talabalarning axborotlarni o‘zlashtirish, sintezlashi va ularni to‘la egallah faolligi yotadi. O‘rganish jarayoni fikrlash faoliyatining turli tuman ko‘rinishlaridan foydalangandagina muvaffaqiyatliroq bo‘ladi. Bunda jarayon yanada ongli ravishda o‘zlashtiriladi. O‘rganish va tanqidiy fikrlash talabalarning aniq vazifalarga nisbatan yangi bilimlarni qo‘llash imkoniyatlariga ega bo‘lgan taqdirda rivojlanadi. O‘rganish talabalarning oldingi bilimlari, tajribalariga tayangandagina mustahkamlanadi. Bular talabalarning bilgan bilimlarini yangi axborotlar bilan bog‘lash imkoniyatini beradi. Tanqidiy fikrlash va o‘rganish g‘oya va tajribalarning turli-tumanligini pedagoglar tushungan va qadrlagan vaqtdagina amalga oshadi. Tanqidiy fikrlash «yakkayu-yagona to‘g‘ri javob» ni qabul qiladigan mentalitet jarayonida yuz bermaydi.

Tanqidiy fikrlashning rivojlanish muhitini yaratish. Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish oson ish emas. Bu muayyan yosh davrida tugallangan va esdan chiqariladigan vazifa ham emas. Shu bilan birga tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan yagona yo‘l ham yo‘q.

Lekin tanqidiy fikr shakllanishiga yordam beruvchi muayyan o‘quv to‘plami mavjud. Uning uchun:

- talabalarga fikr yuritish uchun imkoniyat berish;
- turli-tuman g‘oya va fikrlarni qabul qilish;
- talabalarning o‘quv jarayonida faolligini ta’minalash;
- talabalarni kulgiga qolmaslikka ishontirish;
- har bir talabaning tanqidiy fikr yuritishga qodir ekanligiga ishonch hissini uyg‘otish;

➤ tanqidiy fikrlashning yuzaga kelishini qadrlash lozim.

Shu munosabat bilan talabalar:

- o‘ziga ishonchni orttirish va o‘z fikri hamda g‘oyalarining qadrini tushunish;
- o‘quv jarayonida faol ishtiroy etish;
- turli fikrlarni e’tibor bilan tinglash;

➤ o‘z hukmlarini shakllantirishga hamda undan qaytishga tayyor turishi lozim.

Vaqt. Tanqidiy fikrlash vaqt talab qiladi. Ya’ni, o‘z fikrlarini shakllantirish go‘yo avvalgi g‘oya, tasavvur, uchrashuvlar va tajribalarni arxeologik jihatdan tadqiq qilishga olib keladi. Shuning uchun ham:

- fikrlarini o‘z so‘zlari bilan ifodalash;
- o‘zaro tanqidiy fikrlar almashish;
- o‘z g‘oyalarini ifodalay olish va konstruktiv takliflarga javob ola bilish;
- fikrlarni muayyan g‘oyalar qiyofasida, qulay muhitda amalga oshira olish va o‘z g‘oyalarini to‘la va aniq ifodalay olish.

Izn. Tanqidiy fikrlashda erkinlik bo‘lishi uchun talabalar ma’qul va noma’qul narsalarni aytish, ular haqida fikrlash, ijod qilish uchun ruxsat olishlari lozim. Talabalar mumkin bo‘lgan holatlarni anglab olishgach, tanqidiy tahlil qilishga faol kirishadilar.

Tanqidiy tahlilga izn olish onglilik tamoyiliga asoslanadi. Bunda tahlil va haddan oshish orasidagi farq aniqlab berilishi lozim. Tanqidiy fikrlashga izn berish fikrlash uchun maqsad bo‘lib, do‘stona hamda samarali sharoitda kechadi.

Rang-baranglilik. Talabalarning fikrlash jarayonida turli fikrlar va g‘oyalar paydo bo‘ladi.

Rang-barang fikr va g‘oyalar yakkayu-yagona javobdan voz kechilgandagina mavjudligi yuzaga keladi. Fikrlarni ifoda qilish chegaralanganda talabalarning fikrlashiga chek qo‘yiladi. Faqat birgina javob lozim bo‘lgan taqdirda xilma-xil vosita va jarayonlardan foydalanish joizki, uning yordamida talabalar ana shu javobni topa olsin.

Faollik. Tanqidiy fikrlash talabalarning faolligi bilan bevosita bog‘liq. Odatda, talabalar sustkash tinglovchilar bo‘lishadi, chunki ularda o‘qituvchi bilimli yoki kitobda u berayotgan bilimlar mavjud, shu tufayli ular bilim olishlariga o‘qituvchi mas’ul degan tasavvurda bo‘ladilar. O‘quv jarayonida talabalarning faol ishtiroki va o‘qishga o‘zlarining mas’ul ekanligini his qilish tanqidiy fikrlashda kutilgan natijalarni beradi. Talabalarni fikr yuritishga, o‘z g‘oyalari va fikrlari bilan o‘zaro o‘rtoqlashishga da’vat etish kabi pedagogik yondoshuv ularning faolligini o‘stiradi.

Tavakkalchilik. Erkin fikrlilik tavakkalchilikka asoslanadi. Uning bilim faoliyatida qo‘rqmay tavakkal qiluvchi insonlarni rag‘batlantirib turish joizdir. Fikrlash jarayonida «ahmoqona g‘oyalar» aql bilan tuzilmagan birikma va tushunchalar ilgari surilgan holatlar ham bo‘lishi mumkin. O‘qituvchi uni o‘quv jarayonini tabiiy holati sifatida talabalarga tushuntirishi lozim.

Qadrlash. Tanqidiy fikrlash omillaridan biri talabalarning fikrlash jarayonini qadrlashlaridir. Tashkil etilgan fikrlash jarayonida talabalar o‘z g‘oyalari, tasavvurlarining o‘qituvchi tomonidan qadrlanayotganini tushungan chog‘dagina

chuqur mas’uliyat va e’tiborga yarasha javob qaytaradilar.

Talabalar o‘z fikrlash jarayonini qadrlashni namoyish qilishga harakat qiladilar, unga va uning oqibatlariga nisbatan jiddiy munosabatda bo‘la boshlaydilar.

Qimmatlilik. Fikrlash jarayonini tashkil etish davomida talaba o‘zining fikri, tanqidiy tahlil natijalari qimmatli ekanligini ongiga singdirishi zarur. O‘qituvchi talabalardan muayyan materialni shunchaki qayta ishlashni talab qilganda tayyor qoliplardan, andozalardan voz kechish lozim bo‘ladi. Bu esa talabada o‘zgalar g‘oyalarni mexanik tarzda qayta fikrlash eng muhim va qimmatli ekanligiga ishonch hosil qilishiga olib keladi. Aslida talabaga o‘z fikri, o‘ziga taalluqli bo‘lgan g‘oya va tasavvurlar qimmatli ekanligini ko‘rsata olish zarur. Talabaning o‘zi ham o‘z fikrlarining qimmatli ekanligiga ishonch hosil qila olishi zarur. U o‘z fikrini tushuncha va masalani muhokama qilish jarayonida o‘ta muhim va yechimga hissa qo‘sadi deya tan olishi kerak.

O‘zaro fikr almashinuvi. Fikrlash jarayoni talabalarning o‘zaro fikr almashuvini ko‘zda tutadi. Talabalarning o‘zaro fikr almashinishi ularning bir-biridan o‘rganishdagi o‘rtoqchiligiga asos soladi. Talabalardan fikrlovchi sifatida o‘zlaridagi fikrni ham oddiy xatoni ham boshqalarga ochib berish talab etiladi.

O‘zaro fikr almashishda talabalardan diqqat bilan tinglash, o‘zining qarashlarini tinglovchiga zo‘rlab o‘tkazish va so‘zlovchilarni tuzatib turishdan o‘zini tiyib turishi ham talab etiladi. Bunga javoban talabalar boshqalarning yalpi fikrlaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Keng doiradagi munozara oqibati o‘laroq talabalar o‘zlariga tegishli bo‘lgan g‘oyalarni tahlil qilish va uni aniqlashga yanada qobiliyatları orta boradi, hamda ularni o‘z bilimlari va hayotiy tajribalarida yaratgan g‘oyalarni tizimiga tirkab boradi. Fikrlash jarayonini tashkil etishda uni o‘tkazishning bir necha modellari mavjud. Ular:

- o‘ziga ishonch hosil qilish;
- ishda faol ishtirok etish;
- o‘rtoqlar va o‘qituvchi bilan fikr almashish;
- o‘zgalar fikrini tinglay olish.

Tanqidiy fikrlashni ta’minlovchi savollar. Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g‘oyalarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan hikoyalarni o‘z taxminiy rejalarini bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalilanildi. Qo‘llanmada tahlil qilinayotgan bu masalalar Senders (1969) ifodalari va Blum tizimli savollaridan olindi. Bu savollar turli darajadagi qiyinchilikda fikrlashning turli ko‘rinishlarini ta’minlashda vosita bo‘lib xizmat qiladi. Eslab qolishga yordam beradigan yoki rasmiy savollar eng quyi darajadagi savollarga taalluqlidir. Baholash yoki hukm chiqarish beriladigan savollar fikrlashni ta’minlaydigan ikkinchi sathdagi savollar sifatida qaraladi.

Rasmiy darajadagi shakliy sath savollari faktologik axborotlar olish maqsadida beriladi. Ular faqat mexanik eslashni va talabalarda yaxshi javob berish uchun qisqa muddatda ma'lum predmetlar bo'yicha qisqacha bilimni talab qiladi.

Axborotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga ko'chirish talabalardan uni kuchim (transformatsiya) qilishni talab qiladi. Ko'chirish savollari talabalarga o'rghanayotgan, tavsiflagan va ko'rgan vaziyatlari, sahnalari va voqealarini o'zлari namoyish eta olishlari uchun beriladi. Ko'chirish savollari talabalarni axborotlarni qayta ishslash yoki boshqa shakllarga ko'chim qilishga ilhomlantiradi. Talabalarga sezish, ko'rish (sensor) tajribasini yaratish, shundan so'ng esa boshqalarga o'z ko'rganlarini yetkazish uchun uni e'lon qilish zarur. Bu fikrlashga tortishning faol ijodiy jarayonidir.

Talabalarga g'oyalar, dalillar, qaydlar va qadriyatlar orasidagi bog'lanishlarni ochish uchun izohlashga qaratilgan savollar beriladi.

Senders izohlashni talab etadigan savollarga fikrlashni yuqori darajaga ko'taradigan tayanch savollari deb qaraydi, boshqalar esa (Vogn va Estes) tushunishning o'zining izohlashdir, deb hisoblaydilar.

Tatbiq qilishga qaratilgan savollar uqish (talaffuz) jarayoni yoki o'rganish tajribasida uchraydigan mantiq muammolarini yechish va chuqur o'rganish uchun imkoniyat beradi.

Tahlil etishga qaratilgan savollar talabalardan u yoki bu voqeanning ahamiyati yetarli darajada yaxshi yoritilganmi, yo'qmi degan savolga javob berishga undaydi.

Sintez qilishga qaratilgan savollar yangicha fikrlash asosida ijodiy muammolarni hal qilishga da'vat etadi. Sintez savollari talabalarga o'zining barcha bilim va tajribalarini muammoning ijodiy yechilishida foydalanishga imkon beradi. Sintez savollari muqobil ssenariylar yaratishni ham taqozo qilishi mumkin.

Baholash savollari yaxshi va yomon, adolat yoki adolatsizlik to'g'risida hukm chiqarish uchun beriladi.

Baholash savollari talabalarga, axborotlar sifatini, yangi axborotlarga nisbatan o'z munosabatini baholay olishi, ularni qadrlay olishi uchun beriladi.

Tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda mualliflari fikrlash jarayonini tashkil etishda idrok qilishning 4 o'rinni farqlaydilar:

Yaxlitligicha idrok etish. Mavzu yoki fan to'g'risida umumiy bilimi mujassamlantirgan idrokdir.

Izohli idrok etish. Bu Blum izohlari darajasiga aynandir. Idrokning bu turida talaba g'oya va hodisalarning o'zaro aloqalarini yoritadi, uning mohiyatini muhokama qiladi, fanning turli sohalariga oid g'oya va axborotlarni hatto tashqi jihatdan bog'liq hodisalarni birlashtiradi.

Shaxsiy idrok etish. Talabalar o'zlarida avvaldan mavjud bo'lgan shaxsiy tajriba va bilimlarni yangi bilimlar bilan bog'lab tushunish jarayoni aks ettiradi.

Tanqidiy idrok etish. Mazmunni bir tomonga qo‘yib, uni tahlil qilish, uning nisbiy qimmatini, to‘g‘riligini, foydaliligin va talabalarning bilishi, tushunishi va qabul qilishi doirasida uning ahamiyatini baholashdir.

Shunday qilib, axborotlarni chorlash, o‘ylab ko‘rish va fikrlash metodikalaridan foydalanish quyidagi muhim vazifalarni yechish imkoniyatini beradi:

- talabalarga maqsadlarini anglab olishga yordam beradi;
- mashg‘ulotlarda ularning faolligini ta’minlaydi;
- samarali munozaraga chorlaydi;
- talabalarning o‘zlarini savollar tuzishi va uni savol tarzida bera olishi uchun yordam beradi;
- talabalarga o‘z shaxsiy bilimlarini ifoda qilishga yordam beradi;
- talabalarning shaxsiy mutolaasi motivatsiyasini qo‘llab-quvvatlaydi;
- har qanday fikrlarga bo‘lgan hurmat kayfiyatini yaratadi;
- talabalarda personajlarga nisbatan tuyg‘ularni o‘stirishga yordam beradi;
- talabalar qadrlanadigan fikrlashga sharoit yaratadi;
- talabalarning tanqidiy jalb qilinishiga bir qator umidlar bildiriladi.

Talabaning tanqidiy fikrlashini shakllantirish jarayonida amalga oshirilar ekan, bu ikki tomonni keskin ajratmaslik kerak, biroq bunday farqlash, bizning fikrimizcha, tanqidiy fikrlashini shakllantirish muammosini hal qilishga ancha maqsadga yo‘naltirilgan holda yaqinlashishga imkon beradi.

Talaba shaxsini rivojlantirishda, shuningdek, ikki yo‘nalishni ajratib ko‘rsatish mumkin: fikrlashni rivojlantirish va takomillashtirish hamda shaxsning muayyan sifatlarini shakllantirish. Rivojlantirish, fikrlashni biz tanqidiy fikrlashining bo‘g‘ini deb hisoblaganimiz uchun bu vositalar guruhi quyida batafsil ko‘rib o‘tildi. Shaxsning muayyan sifatlarini shakllantirishga kelganda esa, bunda mustaqil ishslash, tadqiqot topshiriqlarini bajarish, ijodiy ishlar singari vositalar qo‘llaniladi, ular mustaqillikni shakllantirishga, faollikka, ijodiy yondashuvga qiziqish va boshqa shaxs sifatlariga maxsus yo‘naltirilgandir.

Tanqidiy fikrlash jarayonida axborotni tahlil qilish va izohlash, g‘oyalarni tahlil qilish, o‘rganilayotgan hikoyalarni o‘z taxminiy rejalarini bilan qayta tuzib chiqishga qaratilgan savollardan foydalaniлади.

Talabalarning yozma ish yozish orqali ularning tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi strategiyalari. Tanqidiy tafakkur nutq bilan chambarchas bog‘liq. Shaxsda nutqning barcha turlari rivojlangan bo‘lishi kerak.

Og‘zaki nutqdan talaba “Aqliy xujum”, “Munozara o‘tkazish”, o‘qilgan material bo‘yicha fikr bayon etish va boshqalardan foydalaniлади. Shu kungacha ta‘lim jarayonida og‘zaki nutqning rivojlanishiga ko‘proq e’tibor berilgan.

Yozma nutq talabaning fikrlanishi rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Yozma

nutq fikrni keng va chuqur o‘ylab bayon etishni, aniq ifodalashni, bayon etayotgan fikr bo‘yicha o‘ylashni talab etadi.

Ta’lim jarayonida yozma nutqning rivojlanishiga alohida e’tibor berish pedagogik texnologiyaning asosiy talabi hisoblanadi.

O‘zaro faol muloqot jarayonida tanqidiy fikrlashish, dars jarayonini jonli muloqot va baxslar blan o‘tkazish pedagogik texnologiyaning asosiy talabidir. Bunda bir qator ish usullari mavjudki, ular gurux talabalarining faol ishlashiga mo‘djallangan.

Chuqur va atroflicha bilim egallanmagan, mustaqil bilim olishga odatlanmagan, bilimning hayotiy ahamiyatini tushunmagan talaba yaxshi mutaxassis bo‘lib yetisha olmaydi.

Talaba o‘z-o‘zini rivojlantirishi, maqsadga erishishning turli usullari va innovatsiyani bilishi, mustaqil qarorlar qabul qila olishi, tashabbuskor bo‘lishi lozim. Buning uchun kasbiy ta’limning muhim vazifalaridan biri tanqidiy fikrlashni kasbiy tayyorgarlik bosqichida maqsadli va rejali shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishdan iboratdir. Zero, talabalarning tanqidiy fikr yuritishi yuqori darajada shakllantirilsa va rivojlantirilsa, kelgusi kasbiy pedagogik faoliyatida oddiy bitiruvchidan mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlaydigan, turli masalalarni hal qilishda nostandart yechimlarni topa oladigan istiqbolli sub’ektga aylanadi.

Tanqidiy fikrlash orqali bilim egallahning ahamiyati haqida buyuk faylasuf Aristotel: «*Nodonlik bu hali u qadar illat emas, sayoz o‘zlashtirilgan bilimlarni jamlash undan battarroqdir*», - desa, rus yozuvchisi L.N. Tolstoy: «*Donolik iloji boricha ko‘p bilishda emas, balki qanday bilimlar eng zarur, qandaylari ozroq va yana qandaylari favqulodda zarurligini bilishdir*», - degan fikrni bildiradi. Sotsiolog va faylasuf G. Spenser esa: «*Agar kishining bilimlari betartib holda bo‘lsa, qanchalik u ko‘proq bilimga ega bo‘lgan sayin fikrlari shu qadar parokandalashib boradi*», - deydi.

Demak, **tanqidiy fikrlash** – bu ijodiy yoki intuitiv fikrlash emas, dalillarni yodda saqlash yoki g‘oyalarni tushunish ham emas, balki yangi va tushunarli bo‘lgan fikrlar va g‘oyalarning tanlanishi, tekshirilishi, baholanishi, rivojlantirilishi va tatbig‘idir. Shunday ekan, talabalarda tanqidiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirib borish muhim ahamiyat kasb etadi.

2.3. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.). Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari

Kreativ fikrlashga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari. Xorijiy mamalakatlarning ta’lim tizimi amaliyotida shaxs kreativlik sifatlarida shakllantirish yoki rivojlantirishga xizmat qiladigan ko‘plab metod va strategiyalar qo‘llaniladi. Ushbu metod va strategiyalarning didaktik ahamiyati shundaki, ular talaba va ta’lim

oluvchilarni o‘quv materiallari yuzasidan chuqur o‘ylashga majbur qiladi. Shu sababli bu metod va strategiyalarni kreativlik sifatlari nihoyatda past rivojlangan ta’lim oluvchi va talabalar bilan ishlash jarayonida samarali qo’llab bo‘lmaydi.


Skamper ta’lim metodining mazmuni va mohiyati. bir nazorat ro‘yxati shaklidagi oddiy, lekin samarali ijod texnikasidir. Skamper (ta’lim metodi) texnikasi ishlab chiqarishda keng foydlanib kelingan bo‘lib, Scamper so‘zi "tez yugurish" degan ma’noni anglatadi. SCAMPER tushunchasi kengaytmasi (7 ta)ning har biridan 7 qatordan va 3 ustundan iborat jadval yaratish talab etiladi.



Vitagen ta’lim texnologiyasining mohiyati. Vitagen – vita (lot.) – hayot, genesis (lot.) – tug‘ilmoq (hosil bo‘lish), ya’ni hayotdan tug‘ilgan.

Vitagen ta’lim – shaxs (talaba)ning hayotiy tajribasini aktuallashtirish (talab), uning aqliy (intellektual) va psixologik salohiyatidan o‘quv maqsadlarida foydalanish asosida o‘qitish.

Tushunchalar orasidagi farq



Talabanining roli

Talaba bilish jarayonining teng huquqli ishtirokchisi, ya'ni nafaqat ob'ektiv, balki bilish faoliyatining sub'ekti hamdir.

Vitagenga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi shaxsning intellektual va psixologik potensialini namoyon qilishdan iborat. Bunda shaxsning hayot tajribasini hayotiy tajribaga o'zgartirishni nazarda tutadi.

Vitagen ta'lim prinsiplari:


O'qituvchining hayotiy tajribasiga tayanish-bilimlarni qadriyatga aylantirishning asosiy yo'li.

- Hayotiy tajriba shaxsga ta'lim jarayonida potensial qobiliyatlarni ro'yobga chiqarish imkoniyatini beradi.
- Hayot tajribalaridan ko'p o'lchovli foydalanish kerak.
- Talabaning aqliy(intellektual) salohiyatini faollashtirish shaxsnı hurmat qilishga asoslangan bo'lishi kerak.

Vitagen ta'limni amalga oshirish yo'llari:

1. Vizualizatsiya yordamida vitagen tajribasining tarkibini aniqlash.
2. Turli so'rovlardan orqali vitagen tajribasini aniqlash
3. Vitagen tajribasini o'quv jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan tasdiqlash orqali aniqlash.
4. Vitagen tajribasini tahlil qilish. Uning tabiatini va hajmini ochib berish, ular o'rtaqidagi aloqani o'rnatish.
5. Vitagen tajribasini tasniflash uchun asosni aniqlash, uni tasniflash. Turli xil bilimlar sohasidagi vitagenga xos bo'lgan ma'lumotlarni birlashtirish.
6. Maqsadli pedagogik ta'sir o'tkazish imkoniyatini aniqlash integrallashgan bilim, ko'nikma va munosabatlarni shakllantirish.
7. Turli sohalarda ilmiy bilimlarni qurishda vitagen tajribasidan foydalanish shartlarini aniqlash.
8. Ta'lim jarayoniga hayotiy tajribasi yuqori bo'lgan ishtirokchilarni jalg qilish orqali talabalarning dunyoqarashlarini kengaytirish.

Vitagen texnologiyasini amalga oshirish



Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari.

Mustaqil ta'lism shaxsning rivojlanishida asosiy omil bo'lib, uning kelgusi faoliyatida mustaqil ishlay olish xususiyatlarini tavsiflovchi bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil ta'lism mazmuni mehnat xarakteriga bevosita emas, balki bilvosita ta'sir etib, mustaqil ta'lism uchun imkoniyat topa olishiga bog'liq bo'ladi. Mustaqil ta'lism talabaning kelgusi faoliyati davomida o'z yo'lini belgilashning vositasi bo'lib, talaba o'z imkoniyatlarini baholay olishiga sabab bo'ladi. Talaba mustaqil ishini tashkillashtirishni o'qitish paradigmalariga kiritishga sabab, talabani mustaqil faoliyat yuritishini tashkillashtirish bo'yicha yondashuvni o'zgarishi bilan bog'liq bo'lib, o'qituvchidan yangi rol va yangi vazifalarni talab etadi.

Hozirgi kunda talaba mustaqil ishi o'quv-mashq faoliyatining bir turi bo'lgan malaka bilimlari dasturini o'zlashtirish yotadi, ushbu dastur aniq bir tizimda amalga oshirilib, aniq natijaga erishish rejasini tuzish hamda uni baholashda o'qituvchi bilan sherikchilikda ish olib boriladi. Ushbu zamonaviy yondoshuv oliy maktab o'qituvchisidan talaba mustaqil ishini tashkillashtirishga munosabatini o'zgartirishni talab etadi.

«Mustaqil ta'lism» tushunchasi pedagogik lug'atlarda o'quv yurtidan tashqari, mustaqil o'rganish tufayli egallanadigan ta'lism turidir, deb ta'riflangan. Ayni vaqtida «mustaqil ta'lism olish», «o'zini tarbiyalash», «mustaqil o'qish» tushunchalaridan sinonimlar sifatida foydalanimoqda.



Ilmiy tadqiqot natijalari asosida mustaqil ta'limga quyidagicha ta'rif berildi: **mustaqil ta'lism** – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan

tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyatdir.

Hozirgi kunda oliy ta'lif muassasalarida mustaqil ishning ikkita umum qabul qilingan shakllari mavjud: auditoriya va auditoriyadan tashqari.

Auditoriya mustaqil ishi o'qituvchi nazorati ostida o'tkaziladi hamda vazifani bajarish mobaynida o'qituvchi maslahat olish imkonini bo'ladi. Auditoriyadan tashqari mustaqil ishi mustaqil ravishda talabaga qulay vaqtda ko'p holatlarda auditoriyadan tashqarida o'tkaziladi, agar, maxsus xona talab etiladigan bo'lsa, laboratoriya yoki ustaxonada o'tkaziladi.

Hozirgi kunda talaba mustaqil ishini tashkillashtirishda auditoriyadan tashqari mustaqil ishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Auditoriyadan tashqari mustaqil ishi (keyinchalik mustaqil ishi) – talabaning rejadagi o'quv, o'quv-tadqiqot, ilmiy-tadqiqot ishi bo'lib, o'qituvchi topshirig'i bilan auditoriyadan tashqarida, o'qituvchining metodik rahbarligi ostida, ammo o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladi.

Talabalarning mustaqil ishining asosiy belgilariga kiradi:

- bilim yoki amaliy vazifani, muammoviy savol yoki vaziyatni hamda ularni bajarish uchun alohida vaqt, xulosa bo'lishi;

- talaba u yoki bu faoliyatni to'g'ri va yuqori sifatli bajarishda aqlini namoyish etish;

- talaba oldiga qo'yilgan vazifani hal etish jarayonida mustaqil fikr yurita olishi va faolligini namoyish etish;

- muammomini qanchalik tushunib yetganligini aks ettiruvchi natijalarni bo'lishi;
- mustaqil ishi ko'nikmalarini egallaganligi.

Shunday qilib, mustaqil ish bir tomonidan o'qituvchining bevosita ishtirokisiz bajariladigan o'qitishning shakli va o'quv mehnati turi deb qaralsa, boshqa tomonidan – talabalarni mustaqil bilish jarayoniga jalb etish, uni tashkillashtirish usullarini shakllantirish vositasi sifatida qaraladi.

Mustaqil faoliyat tushunchasi ostida faoliyatning barcha struktura komponentlarini bajarishda mustaqillik darajasini belgilovchi bilish faoliyatining turi tushuniladi. Ya'ni, muammoni belgilash, nazorat, o'z-o'zini nazoratlash, qidiruv xarakteriga ega bo'lган oddiy ish turlaridan murakkab ish turlariga dialektik o'tishni korreksiyalash hamda pedagogik boshqaruvning rahbar rolini talabaning o'ziga doimiy transformatsiya orqali mustaqil ish usullarini egallaganidan so'ng o'tkazish [G.M.Kodjapirova, 1998].

Mustaqil faoliyatning asosiy belgisi talabani o'qituvchi yordamisiz ishlashi emas, balki talaba tomonidan bajarilagan barcha **harakatlar** talaba ***o'z oldiga qo'ygan maqsadga asoslangan*** holda bajarishi hisoblanadi.

Mustaqil ishning didaktik vazifalarini asosiy mazmuni quyidagilardan iborat:

- talabalarni o‘quv dasturini egallashini qo‘llab-quvvatlash;
- talabani o‘z o‘qishiga mas’uliyatini oshirish;
- informatsion kompetentlikni takomillashtirishga sharoit yaratish;
- mustaqil o‘qish, o‘quv-tadqiqot/tadqiqot, loyixaviy va ijodiy faoliyat sohasida kompetensiyalarni rivojlantirish;
- talabalarda tizimli fikrlashni shakllantirish.

Talaba mustaqil ishi tartib va tizimli tashkilotni, o‘qituvchi va talaba sherikchilik asosida ishlashini talab etadi.

O‘qituvchining asosiy vazifasi talaba o‘quv faoliyatini hamda o‘qitish muhitini konstruirlashdir. O‘qituvchi va talaba faolyaiti o‘zaro bog‘langan, tub ma’nosiga ko‘ra esa o‘qituvchi talaba faoliyatiga hamroh bo‘lishi kerak.

Talaba mustaqil ishini tashkillashtirish texnologiyasi quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi.

Tayyorlov bosqichida o‘qituvchi tomonidan quyidagiilar bajariladi:

1 qadam. O‘quv dasturiga yangi bo‘limlarni kiritish orqali korreksiyalash: mustaqil ish mavzulari, mustaqil ish nazorat qilish, mustaqil ish uchun topshiriqlar namunasi.

2 qadam. Asosiy maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv ishlarini tanlab olish – talabada universal va malakaviy kompetensiyani rivojlantirish.

3 qadam. Mustaqil ish topshiriqlarini ishlab chiqish.

4 qadam. Talaba mustaqil ish bajarish davomida to‘plashi zarur bo‘lgan soatlar va ballar yig‘indisini hisoblash.

5 qadam. Talaba tanlash imkoniyati bo‘lishi uchun qo‘sishimcha shakl, usullar va o‘qitish vositalarini keltirilgan texnologik xaritani ishlab chiqish.

6 qadam. Fan bo‘yicha o‘quv-uslubiy kompleksni ishlab chiqish hamda o‘qitish muhitini loyihalashtirish.

Maqsadni aniqlash va rejorashtirish bosqichi talaba va o‘qituvchi rejalarini o‘zaro kelishuvini talab etadi. O‘qituvchi talaba faoliyatini samarador bo‘lishi uchun mavzu bo‘yicha mustaqil ish texnologik xaritasini taklif etadi. Talaba o‘quv ish turini tanlaydi, talablar bilan tanishadi.

Maslahat berish bosqichi talaba mustaqil ish bajarishidagi asosiy bosqichlardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi maslahatchi, ekspert, tyutor va moderator vazifasini bajaradi. Aynan ushbu bosqichda talaba pedagogik tayanchni oladi. Maslahat albatta talabaning talabiga asosan o‘tkazilishi kerak: informatsion, texnologik, psixologik va h.k. ko‘rinishda. Ko‘p holatlarda o‘qituvchi ekspertli yoki loyihalashtirish bo‘yicha maslahat beradi. Ammo, har doim ham maslahat berish ijobiy natija bermaydi, ba’zida maxsus qaror va alohida vazifani talab etuvchi masalalar chiqib qoladi. Ba’zi talabalarga

fasilitatsiya talab etiladi, bunday holatlarda o‘qituvchi tyutorlik vazifasini bajarishi kerak bo‘ladi. Ba’zi talabalar shaxsiy faoliyatini tashkillashtirish kompetensiyalariga hamda guruhda o‘zaro faoliyat ko‘rsatishga ega bo‘lmaydilar, bunda o‘qituvchi moderatorlik vazifasini bajaradi.

Nazorat-baholash bosqichi o‘z ichiga faqatgina talabani baholash vazifasini olib qolmay, balki talaba zx faoliyatini o‘zi baholashi yoki talabalar o‘zaro baholanishlarini ham oladi. Talaba faoliyatini baholashning bir necha shakllari mavjud: texnologik xaritaga asoslanib topshiriqlarni kompleks baholash, refleksiv kundalik tutish, loyiha va tadqiqot ishlari himoyasi, portfolio himoyasi va h.k.lar.

Nazorat-baholash bosqichi refleksivga mos keladi. O‘qituvchi shuni yodda tutmog‘i lozimki, talaba mustaqil ish bajarishida quyidagi qadamlarni bajarishi kerak.

1 qadam. Mustaqil ish maqsadini aniqlash.

2 qadam. Bilish vazifasini(muammoli yoki amaliy) konkretlash.

3 qadam. O‘z oldiga qo‘yilgan yoki tanlangan vazifaga asoslanib mustaqil ishga tayyorlanganligini o‘zi tomonidan baholanishi.

4 qadam. Vazifani hal etishga olib keluvchi harakatlarning adekvat usulini tanlash (uni hal etuvchi yo‘l va vositalarni tanlash).

5 qadam. Vazifani hal etish rejasini tuzish (mustaqil yoki o‘qituvchi yordamida).

6 qadam. M/i bajarish dasturini amalga oshirish.

7 qadam. Olingan natijalarga baho berish orqali m/i bajarilishini talabani o‘zi nazorat qilishi.

8 qadam. Shaxsiy o‘quv faoliyatini refleksiyasi.

Har bir qadamda faoliyat refleksiyasi zarur.

Yakuniy bosqich analistik bo‘lib, bunda talaba ham o‘qituvchi ham faoliyatni tizimli refleksiyasini amalga oshirishadi. Talaba quyidagi savollarga javob berish orqali refleksiyani amalga oshiradi:

1. O‘quv faoliyati davomida nima amalga oshirildi, nima yo‘q. Amalga oshmasligi uchun nima to‘sqinlik qildi?

2. Universal va malakaviy kompetensiyalardan qaysi birini rivojlanishiga erishildi? Meni nokompetentligim nima bilan namoyon bo‘ladi? Buni to‘g‘rilashning imkonи bormi?

3. Ushbu kursda o‘quv va shaxsiy yutuqlardan qaysi biri hamroh bo‘ldi?

4. O‘z bilimimni oshirishda yana nimalar qilishim zarur? Shaxsiy va malakaviy faoliyatimni qanday oshirishim mumkin.

O‘qituvchi olingan natijalarni tahlil etadi, xulosa beradi, topshiriqni hal etishdagи kamchiliklarni aytadi.

Nazorat savollari

1. Ta’limning tashkiliy shakli deganda nimani tushunasiz?
2. Yakka tartibda o‘qitish mazmunini bayon qiling.
3. Sinf-dars tizimining afzallilik va kamchiiliklarini aytib bering.
4. Darslarga qanday didaktik talablar qo‘yiladi?
5. O‘quv mashg‘ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllarini sanab bering.
6. Zamonaviy o‘qitish shakllarini bayon qiling.
7. O‘quv mashg‘ulotlarini loyihalash qanday tartibda amalga oshiriladi?
8. Talabalarda tanqidiy, o‘zini-o‘zi rivojlantirish yo‘llari.
9. Tanqidiy fikrlashning tashqi va ichki tomoni.
10. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari.
11. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy usullari.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O‘zbekiston, 2018.
2. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzlusiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi “O‘qituvchi va murabbiylar–yangi O‘zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Xalq so‘zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy

ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-sonli qarori.

12. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obiectva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.

13. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

14. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoj obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

15. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo’llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – T.: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

16. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliv ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.

17. Makarova.N.S. Didaktika vlysshey shkoly. monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.

18. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

19. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo’llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

20. Obrazovanie v sifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.

21. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse vuza: monografiya. – Voskresensk, 2012. – 218 s.

IV. AMALIY MASHG'ULOT MATERIALLARI

IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

1-AMALIY MASHG‘ULOT. MAVZU:PEDAGOGNING KASBIY PRFESSİONALLIGI VA UNİ RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI (2 soat)

Reja:

1. Pedagogning kompetentligi va kreativligi. Pedagogning kasbiy professionalligi va uni innovatsion faoliyatda namoyon bo‘lishi.
2. Ta’lim jarayonini loyihalash va modellashtirish pedagogning kasbiy professional ijodkorligini rivojlantirish omili.

O‘quv va tarbiyaviy maqsadi:

Ta’limiy: tinglovchilarga o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda diqqatni jalb etish usullari bilan tanishtirish, tushuncha berish.

Tarbiyaviy: tinglovchilarga auditoriyani boshqarishda diqqatni jalb etish usullarini qo‘llashning o‘qituvchi va tinglovchi faoliyatidagi ahamiyatini nazariy va amaliy yoritib berish orqali ularda qiziqish, o‘quv faoliyatida qo‘llashga hohish uyg‘otish.

Rivojlantiruvchi: tinglovchilarda o‘quv mashg‘ulotlarini samarali o‘tkazishlari va ta’lim sifatini oshirishlarida, auditoriyani boshqarishlarida diqqatni jalb qilish usullarini qo‘llanishi bo‘yicha bilim, ko‘nikma va malaklarini boyitish, ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikalarini o‘rgatish, o‘qituvchilarda ijodkorlikni rivojlantirish.

O‘quv va moddiy ta’midot: kompyuter va videoproektor; tarqatma material, mashg‘ulotga tegishli prezentsiya slaydlari, markerlar, skoch, doska, kompyuter, proektor.

AMALIY MASHG‘ULOTNI O‘TKAZISH TARTIBI:

Mashg‘ulot o‘qituvchining tinglovchilarini auditoriyani boshqarishda diqqatni jalb etish usullari bilan ekrandagi taqdimot materiallari orqali tanishtirishdan boshlaydi va o‘quv jarayoni qatnashchilarini kichik guruqlar yoki juftliklarga bo‘ladi.



Диққатни жалб этиш усуллари:

ташқи киёфа,
нүткій (нүтк ва охандорлик),
бир лахзалик сұкут,
харакатли,
белгили,
жестлар,
аралаш



Har bir kichik guruhgaga ekranda berilgan prezentatsiya materiallari asosida tayyorlangan diqqatni jalb etish usullariga tegishli bo‘lgan tarqatma materiallarni tarqatadi, ularni birgalikda to‘ldirishlari tartiblarini tushuntiradi. O‘quv savoliga tegishli tarqatma materiallar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

O‘quv jarayonini boshqarish uslublari					
Avtoritar		Demokratik		Liberal	
<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>	<i>Afzalligi</i>	<i>Kamchiligi</i>
Xulosa:					

O‘qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalb qilish usullari Jestlar

<i>Ijobiy ta’sir</i>	<i>Salbiy ta’sir</i>

O‘qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalg qilish usullari
Nutq va ohangdorlik

<i>Ijobiy ta’sir</i>	<i>Salbiy ta’sir</i>

O‘qituvchi tomonidan tinglovchilar diqqatini jalg qilish usullari
Tashqi qiyofa

<i>Ijobiy ta’sir</i>	<i>Salbiy ta’sir</i>

O‘qituvchi topshiriqni tinglovchilar tomonidan bajarishlari uchun tayyorlanishga vaqt ajratadi va ularni taqdimot qoidalari bilan tanishtiradi, tinglovchilarning tayyorlanishlari uchun sharoit yaratadi.

Guruqlar tayyorgarlikni boshlaydilar.

Keyingi bosqichda guruqlar tayyorlagan ijodiy ishlarini navbatli bilan taqdimot qiladilar. O‘qituvchi guruqlar taqdimoti uchun vaqt belgilaydi. Har bir chiqish tugagach, boshqa guruh qatnashchilari namoyish etilgan taqdimotni to‘ldirishlari va mavzuga oid savollar berishlari mumkin.

O‘qituvchi har bir guruhning taqdimotini umumlashtiradi, fikr almashadi va baholaydi. Mashg‘ulotda qo‘lanilgan metodlarga izoh beradi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

O‘qituvchi tinglovchilar bilan mashq qilishda o‘zining (shaxsiy) qiziqarliroq variantlaridan ham foydalanishi yoki pedagogik-psixologik uyin elementlaridan foydalangan holda ham tashkil etishi mumkin.

Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiy tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

2-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: O'QUV MASHG'ULOTLARINING ZAMONAVIY TURLARI ASOSIDA TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH METODIKASI. (2 SOAT)

Reja:


1. O'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlari asosida (loyiha, aralash ta'lim, virtual laboratoriya, debat) tashkil etish.
2. Talabalarda tanqidiy, o'zini-o'zi (motivatsion, intellektual, amaliy-faoliyatli, faol kommunikatsiya va jamoaviy ish) rivojlantirish.
3. Kreativ fikrlashni shakllantirish usullari (dizayn-fikrlash, skamper va x.q.).
Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning zamonaviy shakllari

Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda o'quv mashg'ulotlarining zamonaviy turlari asosida tashkil etish va o'tkazish metodikasiga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalilanildi.

Birinchi topshiriq. Tinglovchilardan o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllarini turlarini belgilash talab etiladi. Tinglovchilarga quyidagi rasm shakldagi ish varog'i taqdim etiladi



O'quv mashg'ulotlarni tashkil etishning asosiy shakllari




Ikkinchi topshiriq. Tinglovchilar Darslarga qo‘yiladigan didaktik talablarni quyidagi jadvalga to‘ldirishi talab etiladi.

№	Darslarga qo‘yiladigan didaktik talablar		
	Ta’limiy	Tarbiyaviy	Rivojlantiruvchi

Uchinchi topshiriq. Tinglovchilar tomonidan *an'anaviy* va *noan'anaviy* darslarni qiyosiy tahlil qilish talab etiladi. Bunda tinglovchilar SWOT tahlil metodidan foydalanishlari mumkin.



To‘rtinchi topshiriq! Ta’lim jarayonini loyihalash bosqichlarini izohlang!



Beshinchi topshiriq. Quyidagi jadvaldagi Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish bosqichlari mazmunini to‘ldiring

Tinglovchining ish varog‘i

Chaqiriq (Da’vat)	Anglash	Fikrlash

To‘ldirilgan varianti

Chaqiriq (Da’vat)	Anglash	Fikrlash
<ol style="list-style-type: none"> Yangi ma'lumotlarni ma'lum bo'lganlar bilan bog'lash. Talabalarni faollashtirish. Taklif etilgan mavzuni muhokama qilish 	<ol style="list-style-type: none"> Chaqiriq bosqichida yaratilgan qiziqish va harakatlanish inersiyasini, faoliyki qo'llab-qo'vevatlash. Talabalarda o'z tushinishini kuza-tishga doir intilish-larini qo'llash. Yangi o'quv materia-lining tushunilishiga erishish 	<ol style="list-style-type: none"> Talabalar yangi fikr va axborotlarni o'z so'zlari bilan ifodalashga harakat qilib ko'rishlari kerak. Tushunganlarni o'z so'zlari bilan ifodalab, qayta tuzganda shaxsiy anglangan kontekst yuzaga keladi. Jonli fikrlar almashinuviga erishiladi

Oltinchi topshiriq. muammoli-vaziyat. Kompyuter grafikasi darsida o‘qituvchi kompyuterda grafik ishni ishlash yo‘llarini past tempda namoyish qilmoqda. Guruhning

9 nafar o‘quvchisi esa o‘qituvchining har bir harakatiga diqqat bilan e’tibor berib, hammasi uning harakatiga bir ovozdan javob berishmoqda.

- 1) Menda bu xolat tayyor!
- 2) Bundan so‘ng qanday operatsiya bajariladi?
- 3) Animatsiyani bajarish kerak!
- 4) Obektning frontal qismiga qanday o‘tiladi?
- 5) Ctrl +F !

Mustaqil fikr: O‘qituvchi o‘qitishning qanday tamoyillaridan foydalandi?

Bunday o‘qitish haqida siz nima deya olasiz?

Uning mohiyati nimada ko‘rinadi?

Yettinchi topshiriq. muammoli-vaziyat. Mutaxassislik fanida “Grafik ob’ektlar chizish” mavzusini bayon qilish jarayonida o‘qituvchi tomonidan guruh oldiga savol qo‘yildi: biror grafik ob’ektni chizishda nimalarga e’tiborni qaratish zarur? Javoblar turlicha bo‘ldi: “to‘g‘ri dastur tanlash”, “nusxa ko‘chirishda burchak qismlariga e’tibor berish”, “rang formatlarida RGB CMYK larni to‘g‘ri tanlay olish” va hokazo. O‘qituvchi qo‘srimcha savollar orqali guruheni “boshqarib” borib, grafik ob’ektlar chizish yo‘llarini o‘zi yakunlab beradi. O‘quvchilarga esa grafik ob’ekt chizishni kompyuterda bajarish topshiriladi.

Mustaqil fikr: 1. O‘qituvchi yangi mavzuni bayon qilishda qanday didaktik usullardan foydalandi?

2. Yangi mavzuni shu tartibda tushuntirib berishini to‘g‘ri deb bilasizmi?


3. “Savolni to‘g‘ri qo‘yilishi – masalaning yarmini hal qilishdir” degan jumla nimani izohlaydi?.

Sakkizinchi topshiriq. E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi bo‘yicha ishslash.

Amerikalik psixolog E.P.Torrens tomonidan asoslangan “Tugallanmagan rasmlar” testi yuzasidan ishslashga oid topshiriq.

Tinglovchilarning e’tiborlariga E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi havola etiladi va berilgan shtrixlarga tayangan holda to‘laqonli rasm (surat)ni ishslash topshirig‘i beriladi.

E.P.Torrensning “Tugallanmagan rasmlar” testi



Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiylar tarzda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi.

3-AMALIY MASHG'ULOT. MAVZU: STEAM VA STREM TA'LIM XUSUSIYATLARI. (2 soat)

Reja:

1. Steam-ta'lism (Science – aniq fanlar, Technology – texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art – ijodiy san'at, Mathematics – matematika) xususiyatlari.
2. STREM-ta'lism (fan, texnologiyalar, robot texnikasi, injeneriya va matematika) xususiyatlari.


Amaliy mashg'ulotning maqsadi: tinglovchilarda fanlararo integrativ yondashuv, ilmiy-texnik bilimlardan real hayotda foydalanishga oid ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Amaliy mashg'ulotni tashkil etish va o'tkazishda interfaol ta'lism metodlaridan foydalaniadi.


Birinchi topshiriq. Tinglovchilarning Steam-ta'lism xususiyatlari haqidagi kasbiy bilimlarni shakllanganlik darajasini aniqlashga oid anketa-so'rov nomalari o'tkaziladi. Har bir tinglovchi quyidagi anketa savollariga javob berishi talab etiladi.

№	Anketa savollari	Javob
1	STEAM ta'limi deganda nimani tushunasiz?	
2	O'quv jarayonida fanlararo aloqadorlik qanday ahamiyatga ega?	
3	O'quv bilimlarining fanlararo tuzilmasi nima?	
4	STEAM ta'liming ustuvorligining sabablari nimalarda ifodasini topadi?	
5	STEAM ta'lrim tizimi fanni o'qitishning an'anaviy usulidan qanday farq qiladi?	
6	Fanlararo alqadorliklar prinsipining asosiy mohiyatiy va me'yoriy funksiyalarini yoriting	


Ikkinchchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan faningizni “Science – aniq fanlar” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.




Uchinchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan faningizni “Technology – texnologiyalar” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.




To‘rtinchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan faningizni “Engineering – texnik ijodkorlik” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.



Beshinchchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan fanningizni “Art – ijodiy san’at” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.




Oltinchi topshiriq. “Venna diagrammasi” metodi asosida o‘qitadigan fanningizni “Mathematics – matematika” bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang.



Yettinchi topshiriq. “Mental xarita” metodi asosida o‘qitadigan fanningizni STEAM

bilan o‘zaro integratsiyasi aniqlang!



Mashg‘ulotning yakuni

Tinglovchilarning faoliyati umumiylarda tahlil qilinadi. Imkon qadar har birining faoliyatiga baho beriladi. Mashg‘ulot yakunlanadi

Tavsiya etilayotgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshchestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.
2. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. — Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.
3. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoego obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. — Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.
4. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. — T.: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
5. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovason pedagogik texnoogiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) - T. 2017, Z68 b.
6. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsolieva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. — T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
7. Makarova.N.S. Didaktika vysshey shkoly. monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.

8. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
9. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.
10. Obrazovanie v sifrovyyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.
11. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse vuza: monografiya. – Voskresensk, 2012. – 218 s.

V. GLOSSARIY

Termin	O‘zbek tilidagi sharhi	Ingliz tilidagi sharhi
Algoritm Algorithm	Modul ta’limi tarkibiy bo‘laklarining o‘zaro joylashishi hamda texnologik jarayonni amalga oshirish ketma-ketligining avvaldan belgilangan tartib-qoidalari	Rules initially established to realize an interposition of parts of module education and sequence of technological process
Aralash model Mixed model	Masofaviy ta’limning turli shakllari, bir necha shakllarning integratsiyasiga asoslangan model	Model based on various forms distance learning and integration of some forms
Aralash o‘qitish Blended learning	Onlayn o‘quv materiallari hamda o‘qituvchi rahbarligida guruhda ta’lim olishga asoslangan o‘qitish shakli	A form of teaching based on a group learning under the supervision of a teacher using online study materials
“Assesment” texnologiyasi “Assessment technology”	Talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta’minlovchi topshiriqlar to‘plami	A set of assignments intended for comprehensive assessment of skill and competence level of students
Axborotli loyiham Information projects	O‘quv jarayonini tashkil etish yoki boshqa ta’limiy xarakterga ega buyurtmalarni bajarish maqsadida nazariy axborotlarni yig‘ishga yo‘naltirilgan loyiham	Projects intended for collecting theoretical information aiming at realization of scientific projects or organization of educational process
Validatsiya Validation	Ta’lim mahsuloti, ta’lim xizmatlari yoki ta’lim tizimi iste’molchilarini ehtiyojlarining qondirilishi	Satisfaction of interests of customers in educational and service system
Vebinar texnologiya Webinar technology	Web texnologiyalar asosi (onlayn tadbirlar va ta’lim vositalari yordami)da tashkil etiladigan seminar, konferensiya, bahs-munozara, uchrashuv, taqdimot, trening, turli voqeа yok hodisalar bo‘yicha Internet tarmog‘i orqali tashkil etiladigan to‘g‘ridan to‘g‘ri uzatiladigan lavha (translyatsiya)lar	Broadcasting organized via Internet transmitting live seminars, conferences, debates, presentations, negotiations, meetings, trainings, various events with the help of Web technologies
Dars ishlanmasi Lesson planning	Ta’limiy mazmunga ega loyiha va o‘qituvchi tomonidan tuzilishi majburiy bo‘lgan hujjat	An obligatory document completed by a teacher and a project that has educational essence
Dasturiy ta’lim Program education	1) o‘qitishning talaba, talabalar ehtiyoji, qiziqishi, bilimi, dunyoqarashi, ular tomonidan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishda duch kelish ehtimoli bo‘lgan muammolar, o‘quv fanining imkoniyatlarini inobatga olgan holda tashkil etiladigan ta’lim; 2) pedagogik texnologiyalaridan biri	1) education organized considering interests and needs, outlook of students, problems that appear in assimilation of study materials by students, and opportunities of the academic subject; 2) one of the pedagogical technologies
Dramatik o‘yinlar	Psixologik hamda ijtimoiy	Games intended for solving

Dramatic games	masalalarni hal qilishga yo'naltirilgan o'yinlar	psychologic and social issues
Didaktik o'yinlar	O'rganilayotgan ob'ekt, hodisa, jarayonlarni modellashtirish asosida talabalarning bilihga bo'lgan qiziqishlari, faolliklarini oshiradigan o'quv faoliyati turi	A type of a study activity that increases activeness, interest of students in getting knowledge based on the modeling of processes, events, objects that are being studied
Ijodiy loyihalar	Individual yoki hamkorlik asosida ijodiy xarakterga ega yangi ta'lim mahsulotlari (ijodiy hisobot, ko'rgazma, dizayn, videofilm, nashr ishlari – kitob, almanax, buklet, albom, bosma va elektron jurnal, kompyuter dasturlari kabilari)ni yaratishga yo'naltirilgan loyihalar	The projects intended to creat new educational products (activity report, exhibition, design, videofilm, publishing works: books, literary miscellany, pamphlets, albums, printed and electronic journals, computer programmes) that have creative characteristics based on cooperation and individual activity
Imitation o'yinlar	Ishlab chiqarish korxonalari, ish o'rnlari, firmalar, tashkilotlarda xodimlar tomonidan amalga oshiriladigan faoliyatni imitatsiyalash (taqlid qilish, ko'chirish) asosida talabalarni muayyan amaliy yoki kasbiy faoliyatga samarali tayyorlashga yo'naltiradigan o'yinlar	Activities aimed at effective preparing students for certain activities based on imitation of activity carried out by employees of organizations, companies, factories
Individual ta'lim	Ta'lim jarayonida o'qituvchining faqatgina bir nafar talaba bilan yoki talabaning ta'lim vositalari (adabiyotlar, kompyuter, televidenie, radio va b. axborot texnologiyalar) bilano'zaro hamkorligi asosida o'quv materiallarining o'zlashtirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing of mastering skills of a student in cooperatuion with a single student or educational means (literature, computer, television, redio, etc.) during educational process
Innovatsion ta'lim	Talabada yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, me'yor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim	Education that allows to develop skills and qualities f a student
Innovative education		
Innovatsion faoliyat	Yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmuali muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat	An activity carried out for solving a set of problems that occur as a result of rejecting new developing ideas or inappropriateness of new social requirements to traditional standards
Innovatsiya Innovation	Muayyan tizimning ichki tuzilishini o'zgartirishga qaratilgan faoliyat	An activity aimed at changing the internal structure of a certain system

Interfaol ta'lim Interactive aducation	Talabalarning bilim, ko'nikma, malaka va muayyan axloqiy sifatlarni o'zlashtirish yo'lidagi o'zaro harakatini tashkil etishga asoslanuvchi ta'lim	The education based on organization of interaction in mastering by students certain moral qualities, skills and knodlegde
Ishbilarmonlik o'yinlari Business games	Ma'lum faoliyat, jarayon yoki munosabatlar mazmunini yoritish, ularni samarali, to'g'ri, oqilona uyushtirishga doir ko'nikma, malaka va sifatlarni o'zlashtirish maqsadida tashkil etiladigan o'yinlar	Activities organized in order to master skills in running a certain activity, process or relationships and their effective and proper organization
"Keys-stadi" texnologiyasi "Case study" technology	Muammoli vaziyat; talabalarda aniq, real yoki sun'iy yaratilgan muammoli vaziyatni tahlil qilish orqali eng maqbul variantlarini topish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan texnologiya	A technology that forms skills in earching for proper variants by analizing created or authentic dilemma (problematic situation) or problems
Loyihalash Projecting	Boshlang'ich ma'lumotlar, aniq belgilangan vaqt, maxsus tanlangan shakl, metod va vositalarga tayanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali avvaldan faoliyat modelini tuzish, faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat	An action aimed at developing the essence of an activity or process, acivity model by assuming, predicting, planning an expected result based on the initial information, specifically chosen form, method and means
Loyiha Project	Aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan harakat mahsuli	A result of an action aimed at developing the essence of pedagogical activity based on a certain plan, aim and by guaranteeing its effectiveness
Loyiha metodi A method of project	O'quv jarayonini individuallashtirish, talabaning o'zini mustaqil namoyon qilishini rejalashtirish, o'z faoliyatini oqilona tashkillashtirish va nazorat qilish imkoniyatini beradigan ta'lim metodlari majmui	A set of educational methods that allow individualization of educational process, independent planning of students' performance, control and proper organization of an activity
Loyiha ta'limi A study of project	Ta'limiy xarakterdagi aniq reja, maqsad asosida uning natijalanishini kafolatlagan holda pedagogik faoliyat mazmunini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at developing the essence of pedagogical activity by guaranteeing the effectiveness of a pla and aim that have educational characteristics
Masofaviy ta'lim Distance learning	Muayyan nuqtadan axborot-kommunikatsiya vositalari (video, audio, kompyuter, multimedia, radio, televidenie va b.) yordamida ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, ta'limiy mahsulotlarni tarqatish va yetkazib berishdai an'anaviy hamda innovatsion shakl, metod, vositalarga asoslangan holda ta'lim resurslaridan foydalanishga yo'naltirilgan ta'lim	Education aimed at using study resources based on innovational form, method and means in organizing study services, expanding and delivering study products with the help of certain information communication means (video, audio, computer, multimedia, radio, television, etc.)

Masofaviy ta'lif texnologiyalari	Ta'lifning belgilangan mazmun asosida amalga oshirilishini ta'minlashga yo'naltirilgan shakl, metod va vositalar majmuasidir	A set of forms, methods and means used for increasing effectiveness of education and educational process
Distance learning technologies	Ochiq tashkil etilib, ilg'or pedagogik tajribalarni targ'ib etishga yo'naltirilan samarali o'qitish shakli	An effective form of teaching organized to spread progressive pedagogical experiences
Mahorat darslari		
Master classes		
Moderator	Masofaviy ta'lif negizida tashkil etilayotgan seminar, trening, davra suhbatи va forumlarga boshchilik qiluvchi (boshqaruvchi) pedagog	A pedagog leading seminars, trainings, debates and forums organized in the frames of distance learning
Modellashtirish	Hodisa, jarayon yoki tizimning umumiy mohiyatini to'la yorituvchi modelni yaratish	Developing a model that discloses principal essence of an event, process and system
Model	Real, haqiqatda mavjud bo'lgan ob'ektning soddalashtirilgan, kichraytirilgan (kattalashtirilgan) yoki unga o'xshagan nusxasi	A simplified or lessened copy of a real and authentic object
Modernizatsiya Modernization	Ob'ektning yangi talablar va me'yorlar, texnik ko'rsatmalar, sifat ko'rsatkichlariga mos ravishda yangilanishi	Renewal of the object according to the new requirements, quality indicators and technical regulations
Modul	1) tizim ichidagi o'zaro chambarchas bog'liq elementlardan iborat tugun; 2) muayyan texnologiyani tashkil qiluvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalovchi atama; 3) o'quv materialining mantiqan tugallangan birligi	1) units that consists of interrelated elements in the system; 2) notion meaning parts that create a certain technology; 3) logically completed units of study materials
Modul ta'limi		
A study of module	O'quv jarayonini tashkil etishning muayyan shakli bo'lib, unga ko'ra o'quv materiali mantiqiy tugallangan birliklari – modullarga asoslangan holda ma'lum bosqich va qadamlar asosida o'zlashtiriladi	A certain form of organization of educational process, according to which the logically completed units of study materials are mastered based on the certain stages and steps
Muammoli vaziyat	Talabalarning ma'lum topshiriqlarni bajarish	
Dilemma	(masalani yechish, savolga javob topish) jarayonida yuzaga kelgan ziddiyatni anglashi bilan bog'liq ruhiy holati bo'lib, u hal etilayotgan masala bilan bog'liq yangi bilimlarni izlashni taqozo etadi	It is a psychological state of a student that is related with tension that occurs during a process of accomplishing the assignments, and it requires to master skills, knowledge for successful and effective accomplishment
Muammoli ma'ruza	O'qituvchi tomonidan talabani muammoli vaziyat, muammoli masalani hal etishga yo'naltirish orqali unda bilish faoliyatini oshirishga yo'naltirilgan ma'ruza	A lecture aimed at increasing students' study activity in solving an issue or dilemma
A problem lecture	Talabalarda ijodiy izlanish, kichik	
Muammoli ta'lif		Education aimed at developing

Problem education	tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limga	students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammoli ta'limga texnologiyalari	talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum xulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'limga texnologiyalari	The technologies that develop students' competence and skills in carrying out creative researches, promoting certain theories, reasoning the results, coming to some conclusions
Muammo Problem	Hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masala	an issue that has practical and theoretical significance and needs to be dealt with or solved
Mustaqil ta'limga Independent learning	OTM talabalarida pedagog rahbarligi va nazorati ostida o'quv hamda mutaxassislik fanlari bo'yicha ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarida egallangan BKMni mustahkamlash, boyitish, ular tomonidan yangi BKMni mustaqil o'zlashtirilishini ta'minlash, ularni kasbiy faoliyatni mustaqil tashkil eta olishga tayyorlashga yo'naltirilgan ta'limga	education aimed at preparing the students of higher educational institutions for independent organization of professional activity, self-mastering and improving skills and competence obtained in lectures, seminars and practical lessons on specialized study subjects under the supervision and control of pedagogs
Novatsiya Novation	Tiziindagi ayrim elementlarnigina o'zgartirishga xizmat qiluvchi faoliyat	An activity that serves to change certain elements in the system
Pedagogik muammo Pedagogical problem	Hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masala	A pedagogical issue that must be solved but has uncertain ways of solution
"Portfolio" Portfolio	Avtobiografik xarakterga ega hujjatlar to'plami	A set of autobiographical documents
Repetitorlik ta'limi Tutoring	Individual ta'larning eng ommalashgan zamonaviy turi	A modern type of popular individual learning
Rivojlanish Development	Shaxsning fiziologik hamda intellektual o'sishida namoyon bo'ladigan miqdor va sifat o'zgarishlar mohiyatini ifoda etuvchi murakkab jarayon	A complicated process of qualitative and quantitative changes in individual's physiological and intellectual development
Rivojlantiruvchi ta'limga	Talabalarning ichki imkoniyatlari rivojlantirish va ularni to'la ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan ta'limga	Education aimed at revealing and developing students' inner capacities

Developing education		
Rolli o‘yinlar Role-playing games	Ma’lum bir shaxsning vazifa va majburiyatlarini bajarishdagi ruhiy holati, xatti-harakatlar mohiyatini ochib berishga yo‘naltirilgan o‘yinlar	Activities that allow to explore the psychological state and actions of an individual when accomplishing the assignments and obligations
Syujetli o‘yinlar Plot games	Pedagogik voqelik, hodisalar bayonining muayyan izchilligi va unda ishtirok etayotgan shaxslar faoliyatining o‘zaro bog‘liqligiga asoslangan o‘yinlar	Activities that are organized based on the interrelation of activities of individuals who participate in pedagogical situations
Tadqiqot loyihalari Projects of research works	Ilmiy izlanish xarakteriga ega loyihalar	Projects that have scientific study characteristics
Ta’lim jarayonini loyihalashtirish Projecting the educational process	O‘qituvchi tomonidan talabaning muammoni izlash, uni hal etish bo‘yicha faoliyatni rejallashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo‘lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o‘quv faoliyati	A targeted educational activity organized in order to develop students’ skills in carrying out independent actions to plan and organize activites and its assessment
Ta’lim innovatsiyalari Educational innovations	Ta’lim sohasi yoki o‘quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo‘llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar	Forms, methods and technologies that are used for innovative solutions to existing problems in learning process or educational sphere and that guarantee effective results
Texnologik model (pasport) Technological model (passport)	Ta’lim yoki ma’naviy-ma’rifiy tadbirning asosiy ko‘rsatkichlari va ularning texnologik tavsifini yorituvchi hujjat	A document that reveals main indicators of education or spiritual and educational events and their technological characteristics
Texnologik xarita Technological map	Ta’lim jarayonni bajaruvchi yoki ma’lum ob’ektga texnik xizmat ko‘rsatuvchi pedagoglarga taqdim etiladigan barcha zarur ma’lumotlar, ko‘rsatmalarini o‘z ichiga olgan hujjat	A document that comprises all necessary information that is represented to pedagogues that lead educational process or those who carry out technical services to a certain object
Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim Student-centered education	Talabaning fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’lim	Education aimed at developing particular characteristics and abilities and personality of a student by considering his thinking and action strategies
Shaxsni rivojlantirish Developing an	Individda vaqt nuqtai nazaridan jismoniy va ruhiy o‘zgarishlarning sodir	A process of occurring physical and psychological changes in an individuaul

individual	bo‘lish jarayoni	
O‘yin Game	Kishilik faoliyatining muhim turi hamda ijtimoiy munosabatlar mazmunining bolalar tomonidan imitatxiyalash (ko‘chirish, taqlid qilish) asosida o‘zlashtirish shakli	An important type of individual’s activity and a form or method of mastering by imitating the relationships by children
O‘yin texnologiyalari (o‘yin ta’limi) Game technologies (game learning)	Ijtimoiy tajribalarni o‘zlashtirishning barcha ko‘rinishlari: bilim, ko‘nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo‘naltirilgan shartli o‘quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri	One of the types of education (pedagogical technologies) aimed at creating a process of emotional and assessment activity as well as skills and competence that are the forms of mastering various social experiences by a student
O‘quv loyihasi Learning project	1) talablarning muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natija (yechim)ni mahsulot ko‘rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil etish usuli; 2) nazariy bilimlar asosida amaliy topshiriqlarni yechishga qaratilgan o‘quv harakati vositasi; 3) rivojlantirish, tarbiyalash, ta’lim berish, bilimlarni boyitish, mustahkamlash va malakalarни shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik vosita	1) a method of organizing an independent learning activity carried out by students for searching, studying and solving the problems and representing a result in the form of a product; 2) means of learning activities carried out by students for accomplishing the practical assignments based on theoretical knowledge; 3) a didactic mean that develops, educates, increases knowledge and develops skills, competence
O‘quv topshiriqlari Study assignments	O‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha talabalar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim, ko‘nikma va malakalar darajasini aniqlashga xizmat qiladigan ta’limiy vazifalar yig‘indisi	A set of learning assignments that allows to identify the level of knowledge, skills and competence of students on a certain subject

VI. АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

VI. ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – T.: “O'zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O'zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo'ladi. 3-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O'zbekiston”, 2020. – 400 b.

II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.–T.:O'zbekiston, 2018.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O'RQ-637-sonli Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevral “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprel "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli Qarori.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 sentabr “2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5544-sonli Farmoni.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgust “Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzuksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabr “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 25 yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning O'qituvchi va murabbiylar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagи nutqi “O'qituvchi va murabbiylar–yangi O'zbekistonni barpo etishda katta kuch, tayanch va suyanchimizdir”. Xalq so'zi gazetasi 2020 yil 1 oktabr, №207 (7709).
15. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabr “Oliy

ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarori.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 fevral, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4623-sonli qarori.

III. Maxsus adabiyotlar

17. Belogurov A.Yu. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obЩestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s.

18. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An’anaviy va noan’anaviy ta’lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.

19. Yejak Ye.V. Psixologicheskoe obespechenie professionalnogo razvitiya pedagoga v usloviyakh riskov sovremennoj obrazovaniya. diss... dok.psixol. nauk. – Rostov-na-Donu.: 2017. - 315 s.

20. Ibraymov A.Ye. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.Ye. Ibraymov. – T.: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

21. Inoyatov U.I. va boshq. Pedagogika: nopedagogik oliy ta’lim muassasalari uchun mo‘ljallangan darslik.-T.: TDPU – 2013. – 256 b.

22. Ishmuhamedov R.J., Yuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovason pedagogik texnoogiyalar (ta’lim tizimi xodimlari, metodistlar, o‘qituvchilar, tarbiyachi va murabbiylar uchun o‘quv qo‘llanma) - T. 2017, Z68 b.

23. Ishmuhamedov R.J., M.Mirsoleeva. O‘quv jarayonida innovatsion ta’lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.

24. Makarova.N.S. Didaktika vlysshey shkolы. monografiya/ N. S. Makarova, N. A. Duka, N. V. Chekaleva. - 2-ye izd., pererab. i dop. - M.: Izdatelstvo Yurayt, 2019 - 172 s.

25. Muslimov N.A va boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

26. Muslimov N.A va boshqalar. Pedagogik kompetentlik va kreativ asoslari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 120 b.

27. Obrazovanie v sifrovuyu epoxu: monografiya / N. Yu. Ignatova; M-vo obrazovaniya i nauki RF; FGAOU VO UrFU, 2017. – 128 s.

28. Saveleva S.S. Pedagogicheskie usloviya formirovaniya professionalnoy kompetentnosti uchitelya v obrazovatelnom protsesse vuza: monografiya. – Voskresensk, 2012. – 218 s.

IV. Internet saytlar

29. <http://edu.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi

30. <http://lex.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi
31. <http://bimm.uz> – Oliy ta’lim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish bosh ilmiy-metodik markazi
32. <http://ziyonet.uz> – Ta’lim portali ZiyoNET
33. <http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi
34. <http://tmetod.uz> – TDPU huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi.